

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

**Qo'lyozma huquqida
UDK: 336.71**

XOLXO'JAYEV IFTIXOR BERDIYOROVICH

**TIJORAT BANKLARINING KAPITALLASHUV DARAJASINI
OSHIRISH YO'LLARI**

**Mutaxassislik: 5A230701-“Bank ishi
(Pul muomalasi va kredit bo'yicha)”**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

imzo

i.f.d.prof. Sh. Abdullayeva

Ilmiy darajasi va unvoni, familiyasi, ismi sharifi

TOSHKENT-2018

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti “Bank ishi” kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar:

i.f.d.,prof. Sh. Abdullayeva

Kafedra mudiri:

i.f.d.,prof. A.Omonov

Magistratura bo’limi boshlig’i:

i.f.n.,dots. U.Ortiqov

Men, Xolxo’jayev Iftixor Berdiyrovich ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko’chirmachilik holati yo’qligiga javob beraman. Ko’chirmachilikka yo’l qo’ygan holatimda magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy Davlat Attestatsiya Komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va “Qoniqarsiz” baho qo’yilishidan xabardorman.

Xolxo’jayev I.B.: _____ “ _____ ” _____

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi avvalambor, unda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari bilan chambarchas bog‘liq. Xalqaro bank amaliyoti tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari kapitalining samaradorligini va uning yetarliligini ta‘minlamasdan turib, banklarning to‘lov qobiliyatini mustahkamlash va aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash mushkul vazifalardan biri hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, mamlakatimiz bank tizimi va bozor infratuzilmasining boshqa organlari faoliyati samaradorligini oshirish ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Afsuski, hozirgi kunda ularning faoliyati bugungi hayot va iqtisodiy islohotlar talablaridan ancha ortda qolmoqda¹. Shuning uchun 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash vazifalari qo‘yildi².

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida tijorat banklari faoliyatiga umume’tirof etilgan zamonaviy me‘yorlar, standartlar va baholash ko‘rsatkichlarini joriy qilish, bank-moliya tizimini xalqaro reyting tashkilotlari baholashi asosida baholash ko‘rsatkichlarini yanada takomillashtirish, bank nazoratining xalqaro prinsiplari asosida tijorat banklari kapitalining yetarliligi, likvidliligi va barqarorligi bo‘yicha talablarni bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Shunday ekan, Respublikamiz tijorat banklari kapitallashuv darajasini yanada jadallashtirishda muammolarining mavjudligi, mamlakatimizda xalqaro

¹ Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56b.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.-Toshkent, 2017. – № 6 (766). – B. 32

standartlarga o'tish va kapital yetarliligini ta'minlash borasidagi muammolar va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish, biz olib borgan ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini ifoladalaydi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tijorat banklari kapitallashuv darjasini oshirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar tadqiqotning obyekti hisoblanadi.

Banklarning kapitallashuv darjasini oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar mazkur ishning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mamlakatimiz tijorat banklari kapitallashuv darjasini oshirish hamda uning yetarliligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek xorij tajribasini chuqur o'rgangan holda kapital yetarliligini xalqaro me'yor darajasida ushlab turish mazkur tadqiqot ishimizning bosh maqsadi sanaladi.

Maqsadga erishish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur bo'ladi:

- Bank kapitali mohiyatini, funksiyalarini va turlarini aniqlash, shuningdek uni oshirish xususida ilmiy-nazariy qarashlarni o'rganish;
- Bazel qo'mitasining banklarning kapitallashuv darjasini oshirishga nisbatan talablari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- Tijorat banklarining kapitali tarkibi va dinamikasini tahlil qilish;
- Kapitalni yetarliligi va zarurligi bo'yicha tahlil qilish va baholash;
- Bank kapitalining yetarliligiga qo'yiladigan mamlakat va xalqaro talablarning bajarilishini ta'minlash asoslarini tadqiq qilish;
- Tijorat banklarining kapitallashuv darjasini oshirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aniqlash;
- Tijorat banklarning kapitallashuv darjasiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va kapitallashuv darjasini yanada oshirish;
- Banklarning kapitallashuv darjasini oshirish borasidagi xorij tajribasini o'rganish va uning respublikamiz amaliyotida qo'llash imkoniyatlarini o'rganish;
- Tahlillar pirovardida muammolar yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Quydagilar tadqiqotning ilmiy yangiligini ifoda etadi:

- Banklar kapitali tarkibini xalqaro standartlarga, ya'ni Bazel qo'mitasi talablariga moslashtirish asoslab berilgan;
- Mamlakatimizda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) tijorat banklari qabul qilishi ortidan birlashgan korxonalar kapitaliga qilingan investitsiyalar kapital hisobida aks ettirilishi asoslab berilgan;
- Tahlil natijalariga asosan tijorat banklarining kapitalini oshirishda imtiyozli aksiyalarni emas, balki oddiy aksiyalarni ko'proq chiqarish banklar kapitallashuv darajasiga yuqori ta'sir etishi asoslab berilgan;
- Tijorat banklari aksiyalarining bozor bahosi bilan uning nominal bahosi o'rtasida farqning deyarli yo'qligi muammosiga yechim asoslab berilgan;
- Birinchi darajali kapitalning barqaror manbalardan tashkil topganligini inobatga olib, devalvatsiya zaxirasini ikkinchi darajali kapital tarkibiga kiritishning zarurligi asoslab berilgan;
- Tijorat banklari kapitalini oshirishda xorij tajribasini o'rganib, uni amaliyotga tadbiq etish yo'llari asoslab berildi;
- Banklarning kapitallashuv darajasi oshirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot ishining asosiy masalalari tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishning nazariy asoslarini yoritib berish, kapital yetarliligining xalqaro me'yorlarini o'rgangan holda amaliyotga tadbiq etish hisoblanadi. Tadqiqot ishining asosiy farazlari banklar kapitalini oshirishning optimal usullarini amaliy joriy qilish borasidagi muammolar yechimini ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Biz ushbu mavzuni nazariy va amaliy jihatdan o'rganishda ko'plab xorij va mamlakatimiz olimlari asarlaridan foydalandik. Banklarning kapitallashuv darajasini oshirish masalasini yoritishda izlanish olib brogan olimlar jumlasiga xorijlik olimlardan A.B.Borisov, Yu.S.Maslennikov, V.M.Usoskin, Kris Dj Barlton, Diana Mak-

Noton, Kris D.Barilton, A.A. Malyutina, D Mak-Noton, O.Lavrushinlarni alohida ta'kidlab o'tish lozim³.

Respublikamiz tijorat banklarining kapitallashuvi dinamikasini tahlil qilish, banklarimizning kapital tarkibini o'rganish natijasida yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan o'z taklif va tavsiyalari bergan holda ilmiy izlanishlar olib borayotgan mamlakatimiz olimlaridan Sh.Abdullayeva, T.Qoraliyev, S.Norqobilov, A.Omonov, T.Boboqulov, D.Saidov kabi olimlarimizning ishlarini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Jumladan, A.V.Vaxabov, T.I.Boboqulov va B.T.Berdiyarovlar tomonidan chop etilgan "O'zbekiston Respublikasi bank tizimining kapitallashish darajasini oshirish yo'nalishlari" nomli monografiya va Sh.Abdullayeva va A.Omonovlarning "Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish" nomli o'quv qo'llanma ma'lumotlari ushbu tadqiqot ishimizni nazariy va amaliy jihatdan boyitishda yordam berganini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz⁴.

Tadqiqot mavzusini yoritish davomida tijorat banklarining hisobot shakllaridan va davriy nashrlarda e'lon qilingan materiallardan foydalanildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Ushbu tadqiqot ishimizda asosan tarixiylik, taqqoslash, analiz, sintez, dialektik yondashuv metodlaridan foydalandik.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Olib borgan ushbu tadqiqot ishimizning nazariy ahamiyati shundan iboratki, ilmiy izlanishlar natijasida qo'lga kiritilgan xulosa va takliflardan mamlakat bank tizimi kapitallashuv darajisini oshirishda uslubiy ko'rsatma sifatida foydalanish mumkin.

³ Под ред. проф. О.И.Лаврушина. Банковское дело. Учебник.— М.: КНОРУС, 2016. — 800 с.; Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. — М.: Альпина Паблишер, 2017. — 2018 с.; Борисов А.Б. Большой экономический словарь. Издание второе, Москва Книжный мир 2006 г С-299; Финансово кредитный словарь. Москва, Финансы и статистика, 1984 г 1 том С-112. С.Н. Лукаш, А.А. Малиютина «Банковская энциклопедия». Днепропетровск 1994. С-24.; Масленченков Ю.С. Финансовый менежмент в коммерческом банке. Москва, «Перспектива» нашриёти, 1996 йил, 25-бет.; Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: Управление и операции. —М.: «Вазар-Ферро», 1994. С.92. ; Крис Дж Барлтон ва Д Мак-Нотон « Банковские учреждения в развивающихся странах», 2 том. Всемирный банк Вашингтон, Д.С 1992г. С-101.

⁴ Abdullayeva SH.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008,-335b.; Azizov U.O'. va boshqalar. Bank ishi. Darslik. — "Fan va texnologiya", 2016, 640b.; ShAbdullayeva, T.Qoraliyev va U.Ortiqovov "Bank resurslari va ularni boshqarish" Toshkent Iqtisod-Moliya, 2009-yil. B-48-49.; Omonov A.A., Qoraliyev T.M., Pul, kredit va banklar". Darslik. "Iqtisod-moliya", Toshkent-2012. 222 b.; Saidov D.A. Tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo'llari: Iqtisod fanlari nomzodi ... Dis.-/T.: BMA, 2007-45b.

Shuningdek, tadqiqot ishida ilgari surilgan takliflarimiz banklar kapitalini oshirishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot ishi tuzilmasining tavsifi. Ilmiy tadqiqot ishimiz kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

Ilmiy tadqiqot ishimizning kirish qismida, mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti, o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati kabi jihatlariga to'xtalib o'tganmiz.

Ilmiy tadqiqot ishimizning birinchi bobida tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmuni va uni oshirishda ilmiy-nazariy qarashlar, Bazal qo'mitasining kapital yetarliligiga nisbatan talablari va uning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek xorijiy davlatlarda bank kapitalini shakllantirish amaliyoti masalalari keng yoritilgan.

Ilmiy tadqiqot ishimizning ikkinchi bobida, tijorat banklari kapitallashuv darajasini joriy holati tahlil qilingan. Bunda asosiy e'tibor banklarning kapitali tarkibi va dinamikasi, kapital yetarliligi holati tahlili va uni oshirishga ta'sir etuvchi omillar atroflicha tahlil qilingan.

Dissertatsiyamizning uchinchi bobida mamlakatimizda tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishda mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, kapital yetarliligini oshirish bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekistonga qo'llash imkoniyatlari hamda kapitallashuv darajasini oshirish yo'llari xususida keng fikr yuritilgan.

Ilmiy tadqiqot ishining xulosa va takliflar qismida tadqiqot ishini bajarish davomida shakllantirilgan xulosa va mavzuga doir muammolarni hal etish yuzasidan amaliy hamda nazariy taklif va tavsiyalari o'rin olgan.

I BOB. TIJORAT BANKLARINING KAPITALINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA XORIJ TAJRIBASI

1.1 Bank kapitalining iqtisodiy mazmuni hamda uni oshirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar

Hozirgi globallashuv jarayoni jadallashayotgan bir paytda mamlakat iqtisodiyotini, uning rivojlanishini banklarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham banklar faoliyatining erkinligi, ularning raqobatdoshligi va eng asosiysi mustahkam kapital bazasiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bank kapitali bank faoliyatining boshlang'ich moliyaviy asosi va keyinchalik uning rivojlanishi, barqarorligi hamda xavfsizligini ta'minlovchi manba hisoblanadi.

Mamlakatimizda tijorat banklari vujudga kelishining dastlabki davridayoq bank kapitaliga asosiy moliyaviy manba sifatida katta e'tibor qaratildi. Ushbu hatti-harakat hozirgi kunda ham o'zining iqtisodiy jihatdan dolzarbligini saqlab turibdi. Chunki hozirgi kunda banklarning insonlar hayotidagi o'rni tobora kengayib bormoqda. Mamlakatimiz Prezidenti bu xususda to'xtalib: "Banklar endi xalqimizni tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka o'rgatishi va shunga yetaklashi lozim bo'ladi"⁵-, deb ta'kidlaganlar. Buning uchun esa banklar moliyaviy jihatdan kuchli va mustahkam kapital bazasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Shunday ekan bank kapitalining mavjudligi bankni tashkil topishi va uning faoliyat ko'rsatishi uchun eng asosiy zaruriyatlardan biridir. Bank kapitali bank balansining passivida joylashadi. Bank o'z kapitali bankrot holatiga tushganda da'volarni qoplashining muhim sug'urta fondi va bank operatsiyalarini rivojlanishini moliyalashtirish manbasi bo'lgani uchun unga alohida e'tibor beriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank kapitalini ikki katta guruhga bo'lish mumkin. Bular, banklarning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya'ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi.

⁵ Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi: "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" 14.12.2016 y.

Shuning uchun bank kapitalining mohiyati, uni oshirib borish va kapitallashuv jarayonlarini isloh qilish bank faoliyatini tashkil etish va boshqarishning eng muhim jihatlaridan biri bo'lib qoladi.

Bugungi kunda ham bank kapitalining mohiyati yuzasidan iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqinlarning mavjudligini inobatga olgan holda ushbu iqtisodiy tushuncha to'g'risida to'liqroq to'xtalib o'tmoqchimiz.

Shu o'rinda biz avvalo, kapital, bank kapitali va bankning o'z kapitali iboralariga aniqliklar kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

A.B. Borisovning iqtisodiy lug'atida "Kapital - bu qo'shimcha daromad olish maqsadida ishlatiladigan moddiy resurslar majmuasidan iboratdir"⁶ deb yozilgan. Bizning fikrimizcha esa bank kapitali ham qo'shimcha daromad olishga yo'naltiriladigan barcha mablag'lardan iboratdir. Bankning o'z kapitali esa qo'shimcha daromad olishga xizmat qiluvchi bankning o'z mablag'laridan iboratdir.

Yuqorida bildirilgan fikrlarimiz boshqa lug'at va iqtisodchi olimlarning mulohazalari bilan mos keladi.

Masalan xorijiy iqtisodchi olim A.G.Gryaznova tomonidan tayyorlangan "Moliya-kredit" lug'atida bank kapitali nafaqat uning o'z mablag'lari, balki shu bilan birga chetdan jalb etilgan mablag'lardan iborat ekanligi ta'kidlab o'tilgan⁷.

Dnepropetrovsklik iqtisodchi olimlar: S.N.Lukash, A.A.Malyutinalar fikricha ham bank kapitali faqat jalb etilgan mablag'lardan emas, balki bank daromadidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga ham tashkil etiladi⁸. Bundan tashqari savdo va sanoat kapitali ham xuddi bank kapitali kabi kelgusida daromad olish uchun ham xizmat qiladi.

Nisbatan keyingi davrdagi iqtisodiy adabiyotlarda "Bank kapitali" iborasi bilan "Bankning o'z kapitali" iborolari o'rtasida farq qolmadi. Buning asosiy sababi bizning fikrimizcha, shundan iboratki, banklarda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari hamda xalqaro bank standartlarining Bazel qo'mitasi

⁶ Борисов А.Б. Большой экономический словарь. Издание второе, Москва Книжный мир 2006 г С-299.

⁷ А.Г. Грязнова. Финансово кредитный словарь. Москва, Финансы и статистика, 2004 г 1 том С-112.

⁸ С.Н. Лукаш, А.А. Мalyutina «Банковская энциклопедия». Днепропетровск 1994. С-24.

tomondan ishlab chiqarilgan andozalarda bankning o'z kapitali "Bank kapitali" deb atala boshladi, shuning uchun ham V.P. Ivanov – "Bank kapitali - bir tomondan bozor iqtisodiyoti mahsuli, ikkinchi tomondan esa, u taraqqiyotning zaruriy shartidir"⁹ - degan umumiy fikr bildirgan.

Yana ba'zi xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda bankning o'z kapitaliga bizning nazarimizda bir tomonlama, qisqacha ta'rif berilgan. Masalan, Jan Matuk bank kapitaliga uning to'lovga qobilligini ta'minlovchi birlamchi vosita sifatida ta'riflaydi.¹⁰ Albatta bankning to'lovga qobilligi masalasi uning faoliyatini tashkil etishda eng muhim masalalardandir. Ushbu masalaga e'tibor uning obro'si, kreditorlar va omonatchilari manfaatlari bilan bog'liqdir. To'lov qobiliyatining yo'qotilishi bankning kreditorlari va omonatchilarini yo'qotishiga va oxir oqibatda uning bankrotlik holatiga olib keladi. Shu bilan birga, biz bank kapitali, bankning to'lov qobiliyatini doimiy ravishda saqlab turishi uchun muhimligini e'tirof etgan holda, uning boshqa jihatlari himoya vositasi va uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirish uchun asosiy manbalardan biri ekanligiga alohida urg'u bermoqchimiz.

Bank kapitali, eng avval uning faoliyatini boshlashi uchun zarurdir. Keyingi davrda esa u faoliyatning rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Muammoli aktivlarni qoplash zaxirasi hisoblanadi, qolaversa bank kapitali uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirish manbasi sifatida foydalanadi.

Rossiya olimlaridan Lavrushin O.I. "Bank ishi" kitobida "tijorat bank kapitali shakllanishi jihatidan, o'z kapitali va jalb qilingan mablag'larga bo'linadi"¹¹, - deb aytib o'tgan. Maslennchenkov Yu.S. "Финансовой менеджмент в коммерческом банке" kitobida: "bank kapitalini o'z va jalb qilingan mablag'lardan tashkil topadi"¹², - deb o'rganadi. Bularning ishlaridan ko'rishimiz mumkinki, bu iqtisodchi-olimlar resurslarning tarkibiy shakllanishiga ko'p e'tibor berib, bank kapitalini faqat ikki guruhga bo'lib o'rganganlar.

⁹ В.В Киселев. «Управление банковским капиталом» Москва « Экономика» 1997. С-18.

¹⁰ Жан Матук .«Финансовые системы Франции и других стран» Итом перевод с англ. Москва «Финстатикформ» 1994г С-25.

¹¹ Лаврушин О.И. Банковское дело. Москва, «Финансы и Статистика» нашриёти, 1999йил, 69-бет.

¹² Масленченков Ю.С. Финансовый менеджмент в коммерческом банке. Москва, «Перспектива» 1996 г. С-25.

Professor V.M.Usoskin¹³ bank kapitaliga bank moliyaviy resurslarining muhim va ajralmas tarkibiy qism sifatida qaraydi. Ko'rinib turibdiki, bu yerda kapital bank resurslarining muhim va tarkibiy qismi sifatida qaralishi natijasida asosiy vazifalari (himoya, tezkor va tartibga solish) e'tibordan chetda qolgan.

Bank kapitali to'g'risidagi bir tomonlama qarashlar Amerikalik olimlar Kris Dj Barlton va Diana Mak-Noton tomonidan ham bildirilgan. Ularning fikricha, bank kapitali bank faoliyatida yuzaga keladigan turli xil ko'zda tutilmagan holatlarning oldini olish uchun yetarli rezerv bo'lishi bilan birga, o'zgaruvchan sharoitga moslashishida yuzaga keladigan to'lovga qobiliyatsizlikni bartaraf etishga yordam berishi bildirilgan.¹⁴

Bu fikrga biz qisman qo'shilgan holda bank kapitalining faoliyati asosi va faoliyatini muvofiqlashtiruvchi xususiyatini nazardan chetda qolganligini e'tirof etmoqchimiz.

Professor I.O. Lavrushin¹⁵ rahbarligida 2001-yilda qayta nashr qilingan "Bank ishi" darsligida ham bank kapitaliga qisqacha qilib "himoya yostig'i" - sifatida tarif berilgan. Bu yerda ham yuqoridagi fikrlar kabi bank kapitaliga bank agarda kutilmaganda zarar ko'radigan bo'lsa, uni qoplash va to'lov qobiliyatini tiklash uchun himoya vositasini o'tashni nuqtai nazarida tutilgan.

Kapitalning tarkibi xususida o'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan B.B.Babayev¹⁶ kredit riskini qoplashga mo'ljallangan zaxira miqdorini to'lig'icha kapital tarkibiga kiritmasligini ilmiy jihatdan asoslab berishgan. Shuningdek, ular joriy yilning sof foydasini kapital tarkibiga kiritmaganlar.

Tijorat banklarida kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarga olib borilayotganligi sababli, ushbu zaxira ajratmalari to'lig'icha kapital tarkibiga kiritilmasligi mumkin, degan xulosani shakllantirishga asos bo'lgan.

¹³ Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: Управление и операции. –М.: "Вазар-Ферро", 1994. С.92.

¹⁴ Крис Дж Барлтон ва Д Мак-Нотон « Банковские учреждения в развивающихся странах », 2 том. Всемирный банк Вашингтон, Д.С 1992г. С-101.

¹⁵ Банковское дело под ред. Проф. И.О.Лаврушина М- «Ф и С» 2001г. С-74.

¹⁶ Б.Б.Бабаев. Вопросы формирования ресурсов коммерческих банков и их эффективное использования. Дисс. на соиск уч. ст. к.э.н. –Т.: БФА. 2002. С. 17.

Kredit risklariga qarshi qilingan zaxira ajratmalari to'g'ridan- to'g'ri xarajatga olib borilsada, ular doimo bankning operatsion faoliyatida moliyalashtirish manbai sifatida ishlatiladi. Chunki, muddati o'tgan kreditlar qaytganda, kreditning asosiy qarz miqdori resurs sifatida tiklanadi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan professor Sh.Abdullayeva va A.Omonovlar bank kapitaliga quyidagicha ta'rif berishgan: “ Tijorat banklarining kapitali barqaror manba bo'lib, bankning operatsion jarayonda kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplash imkoniyatini beruvchi o'ziga xos himoya vositasidir”¹⁷.

Bu yerda ham yuqoridagi fikrlar kabi bank kapitalining himoya vositasi ekanligiga urg'u berilgan va uning barqaror manba ekanligi e'tirof etilgan.

Shu o'rinda kapitalni saqlash buferi degan tushunchaga ham duch keldik. Kapitalni saqlash buferi deganda tijorat banklari tomonidan minimal normativ kapitaldan ortiq darajada o'stirib borilishi lozim bo'lgan kapital tushuniladi. Agar bank minimal normativ kapital talabini bajargan, lekin kapitalni saqlash buferi miqdoriga yetmay olmagani taqdirda qo'shimcha kapital taqsimlanmagan foyda hisobiga yig'ilmagunga qadar bankning foydani taqsimlash parametrlari cheklangan bo'ladi. Bankning boshqa faoliyatiga ta'sir ko'rsatmaydi¹⁸.

Bank kapitalini mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglash uchun u bajaradigan funksiyalarga e'tibor qaratishimiz kerak. Demak, bank kapitalining himoya funksiyasi uning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash imkoniyati va bu orqali kreditorlar hamda omonatchilar manfaatlarini himoyalash bilan izohlanadi.

Bank olgan daromadidan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash imkonini beruvchi turli zaxiralar tashkil etadi. Bular birinchidan muammoli aktivlarni qoplash uchun ajratilgan zaxiralar bo'lsa, ikkinchidan valuta operatsiyalari orqali ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun ajratilgan zaxiralardir.(devalvatsiya fondi)

¹⁷Sh. Abdullayeva va A. Omonov “Tijorat banklarining kapitali va uni boshqarish” T.: “Iqtisod-moliya”. B-10.

¹⁸ www. Sciencedirect.com Peter Majcher “Increased Bank Kapital Requirements: Neither Panacea nor Poison” Procedia Economics and Finance 25 (2015) p. 250

Demak, bank kapitalining himoya funksiyasi birinchidan, bank faoliyati davomida yuzaga keladigan yo'qotishlarni oldini olish imkonini bersa, ikkinchidan, tashkil etilgan zaxiralar hisobiga bankning to'lov qobiliyati saqlanadi.

Bank kapitalining operativ funksiyasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, dastlabki aksioner kapital bank faoliyatini boshlash uchun lozim bo'ladigan turli tuman xarajatlarni qoplash uchun kerak bo'ladi.

Ikkinchidan, bank o'zining aktiv operatsiyalarini oshirib borishi uchun adekvat ravishda bank kapitalini ham oshirib borishi lozim.

Shunday ekan, bank kapitali tijorat banki faoliyatining moliyaviy asoslarini ta'minlaydi. Bank kapitalining muvofiqlashtiruvchi funksiyasi jamiyatning bank faoliyatni muvaffaqiyatli yuritishdan manfaatdorligini bildiradi. Bank faoliyatining ko'lamlari uning kapitaliga mutanosib ravishda muvofiqlashtiriladi.

Mamlakatimiz olimlari Sh. Abdullayeva, T. Qoraliyev va U. Ortiqovlar bank kapitalining quyidagi funksiyalarini e'tirof etishgan:

1. Bank kapitali yuzaga kelgan muammolar hal qilinguncha joriy xarajatlarni qoplaydi.

2. Bank kapitali boshqa yetarlicha depozitlar jalb qilinguniga qadar uni tuzish tashkiliy ishlarni yo'lga qo'yish va faoliyat ko'rsatish uchun zaruriy mablag'lar bilan ta'minlaydi.

3. Bank kapitali mijozlarning bankka bo'lgan ishonchini oshiradi, qo'llab-quvvatlaydi va kreditorlarni bankning moliyaviy kuchiga ishonishga undaydi.

4. Bank kapitali bankning tashkiliy o'sishini va yangi xizmat turlarini ishlab chiqishni ta'minlashi kerak.¹⁹

Yuqoridagi bildirilgan fikrlar ham bizning fikrimizcha bank kapitalining himoya, operativ va muvofiqlashtiruvchi funksiyalarini ifodalaydi. Biz bank kapitalining funksiyalari to'g'risidagi yuqorida bildirilgan mulohazalarni to'liq e'tirof etgan holda hozirgi davrda bank kapitali uning faoliyat ko'lamini belgilovchi vosita va uzoq muddatli investitsiyalar hamda kreditlarning asosiy

¹⁹ Sh.Abdullayeva, T.Qoraliyev va U.Ortiqov "Bank resurslari va ularni boshqarish" Toshkent Iqtisod-Moliya, 2009-yil. B-48-49.

manbasi ekanligini ta’kidlab utmoqchimiz. Bank kapitali uning faoliyat ko’lamining kengayib borishi, ya’ni aktiv operatsiyalarining o’sishi, filiallari sonining ko’payishi, xizmat turlarining ortishiga monand ravishda oshib borishi lozim.

Ta’kidlash joizki, bank kapitali uning kapitallashuv jarayonida ko’payib boradi. Shu o’rinda bir savol tug’iladi: kapitallashuv nimani bildiradi va u qanday amalga oshiriladi?


Bu masalani to’liqroq anglash uchun biz yana lug’atga murojaat etdik. A.B.Borisovning “Katta iqtisodiy lug’ati”da – Kapitalizatsiya bu bankning qimmatbaho qog’ozlarini muomalaga chiqarib, sotishdan tushgan va daromadidan ma’lum zaxiralar tashkil etish uchun ajratilgan mablag’lar hisobiga bank kapitalining o’sgan qismi tushuniladi²⁰. Yuqoridagilardan tashqari bank kapitali ayrim hollarda uning sof foydasining bir qismining kapitalga yo’naltirilishi orqali ham o’sib borishiga erishilishi mumkin. Bu jarayon foydaning kapitallashuvi deyiladi.

Shu o’rinda biz bank o’z mablag’i va o’z kapitali tushunchalariga ham aniqlik kiritmoqchimiz. Professor Sh.Abdullayeva o’zining bank ishi kitobida aynan to’xtalib: “O’z mablag’i tushunchasi keng ma’noga ega bo’lib, u bankning ichki faoliyati davomida tashkil topgan barcha passivlarni (bankning ustav, zaxira, va boshqa fondlari, bank tashkil qilingandagi zaxirlarni, taqsimlanmagan foyda va joriy yil foydasini) o’z ichiga oladi, bankning o’z kapitali deganda esa bankning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga, ko’rilishi mumkin bo’lgan zararlarni qoplashga qaratilgan, maxsus tashkil qilinadigan fond va zaxiralarni tushunishimiz kerak²¹”, - deb e’tirof etganlar.

Umuman olganda, iqtisodchi olimlar bergan ta’riflar turlicha bo’lsada, tub mazmun va mohiyat bir xildir. Biz quyida banklar kapitalining tashkil qilish klassifikatsiyasi tarkibini ko’rib chiqishimiz mumkin. Bunda bank kapitali o’z mablag’lari manbai hamda jalb qilingan mablag’lar manbaidan tashkil topgan.

²⁰ Большой экономический словарь. А.Б.Борисов. Издание второе М. «Книжный мир» 2006г. С-300.

²¹ Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi darslik. Iqtisod-moliya nashriyoti. 2017-yil. 115-bet.



1.1-rasm. Tijorat banklari resurslarining klassifikatsiyasi²²

²²Omonov A.A., Qoraliyev T.M., Pul, kredit va banklar”. Darslik. “Iqtisod-moliya”, Toshkent-2012. 222 b.

Shuningdek, bank kapitali o'z vazifalarini bajarishi uchun quyidagi uchta xususiyatga ega bo'lishi lozim²³:

1. U uzoq muddatli bo'lishi zarur (doimiy).

Tijorat banklarining kapitali uzoq muddatli bo'lishi zarur deganda, asosiy e'tibor kapital egasining ushbu mablag'ni istalgan paytda talab qilish imkoniyatining chegaralanganligi nazarda tutilmoqda. Agar bank aksiyadori istalgan paytda bank kapitalini shakllantirish uchun yo'naltirilgan mablag'ni to'liq yoki qisman qaytarib olsa, bank iqtisodiy jihatdan tang ahvolga tushib qolishi tabiiy.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil-25 aprelda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunida "Bank mutaxassislari bank aksiyadorlari tarkibidan u ro'yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida chiqib ketish huquqiga ega emaslar²⁴", deya qayd etilgan.

Demak, tijorat banklari ustav kapitaliga qo'yilgan mablag'larni bir yil davomida erkin ishlatish huquqiga ega.

2. Bank kapitali majburiy to'lovlarga tobe bo'lmasligi kerak.

Tijorat banklari kapitalining majburiy to'lovlardan ozodligi bankning barqaror faoliyat yuritishiga keng imkoniyat yaratadi. Aksincha, bank kapitali soliq, penya va boshqa to'lovlar, shuningdek, bankning majburiyatlari bo'yicha tobe bo'lsa, uning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va kapital doimo iqtisodiy jihatdan xavf ostida bo'ladi. Mazkur holat banklarga o'z nomidan moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirishda, omonatchilar va investorlarni bankka jalb qilishda hamda aholining ishonchini ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Bank kapitali huquqiy manfaatidan mustaqil bo'lishi lozim.

Tijorat banklari moliyaviy vositachi sifatida omonatchilar va kreditorlardan juda katta miqdorda mablag'larni jalb etadi. Bank kapitali jalb qilingan mablag'larni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan holatlar bo'yicha omonatchilar va

²³ Хенни Ван Г., Соня Б.Б. Анализ банковских рисков. – М.: «Вес мир», 2003 г

²⁴ O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 1996-yil 25-aprel, 7-modda.

kreditorlarning manfaatiga bevosita bog'liq bo'lmasligi zarur. Ya'ni omonatchilar va kreditorlarning bank kapitaliga nisbatan hech qanday qonuniy yoki bilvosita da'volari mavjud bo'lmasligi zarur.

Xulosa qilib aytganda, bank kapitali - bu bank tijorat faoliyatining asosi bo'lib, uning mustaqilligini ta'minlaydi va moliyaviy barqarorligini kafolatlaydi hamda bank risklarining salbiy oqibatlarini yengillashtiradi.

1.2 Bazel qo'mitasining tijorat banklari kapitali yetarliligiga nisbatan talablari va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirishda Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlardan asos sifatida foydalanilmoqda.

Bank kapitali ko'zda tutilmagan qiyinchiliklarning oldini olishda asosiy o'rinni tutishini e'tiborga oladigan bo'lsak, unda muammoli va juda muhim bo'lgan bir necha savol yuzaga keladi: birinchidan kapitalning mavjud darajasi yetarlimi, ikkinchidan kapitalning yetarlilik darajasi qanday miqdorda bo'lishi kerak. Bank kapitalining yetarlilik darajasini tartibga solish rivojlangan mamlakatlarda 20 asrning 70-yillaridayoq amalga oshirila boshlandi. Birinchi bo'lib, 1978-yili AQSHda bank kapitalining yetarlilik darajasi standartlari qabul qilindi.

Aytish lozimki, bu masalalarning yechimi topish uchun dunyoning eng yetakchi banklari va bankdan tashqari moliya institutlari bosh qotirib kelishmoqda. Hozirgi kunda bu masala O'zbekiston banklari uchun ham dolzab bo'lib turibdi. Negaki xorijiy banklar bilan hamkorlikda ishlarning tashkil etilishida, kapital miqdori, uning yetarlilik darajasi va boshqa shunga o'xshash masalalar birinchi o'ringa chiqadi va albatta banklar tomonidan mavjud muammolar e'tibor bilan o'rganilishi talab qilinadi.

Bank kapitali bilan bog'liq muammolarni hal etilishi uchun 1987-yilda AQSH FZT boshqaruvchilari kengashi va 11 rivojlangan mamlakatlar (Belgiya, Kanada, Fransiya, Italiya, Germaniya, Yaponiya, Niderlandiya, Shvetsiya, Shveytsariya, Buyuk Britaniya va Lyuksemburg) vakillari Shveytsariyaning Bazel

shahrida bank kapitalining yangi standartlari to'g'risidagi dastlabki kelishuvga (ko'p hollarda Bazel kelishuvi deb nomlanadigan) kelinganligini e'lon qilishdi. Kelishuv nafaqat kelishuv ishtirokchilar uchun, balki boshqa davlatlar bank tizimlari uchun katta ahamiyat kasb etdi. Bu uchrashuvda, bank faoliyatini tartibga solish bo'yicha yagona qoidalar yaratish bo'yicha qo'yilgan birinchi qadam sifatida kelishuv imzolandi. Bank faoliyatini tartibga solish qoidalari Bazeldagi xalqaro hisob – kitoblar banki tomonidan ishlab chiqilgan.

Bazel kelishuvi qoidalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha har bir mamlakat ma'lum erkinliklarga egadir, ya'ni o'z ichki sharoitidan kelib chiqqan holda mazkur qoidalarini qo'llaydi va Markaziy banklar tijorat banklari uchun iqtisodiy normativlarni Bazel kelishuvi me'yorlari asosida belgilaydi. Bazel kelishuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat edi:

1. Tijorat banklarining bosh banki bilan xorijiy mamlakatlaridagi sho'ba bo'linmalari faoliyatining huquqiy iqtisodiy asoslarini bir xillashtirish;
2. Turli davlatlardagi bank aktivlari risklilik darajasini hisoblashning yagona tartibi belgilash;
3. Risk darajasini hisobga olgan holda bank kapitalining yetarlilik darajasini bir asosga keltirish.

Rasman 1988-yilning iyulidan ma'qullangan yangi standartlar:

- yirik banklarning o'z kapital pozitsiyasini mustahkamlashga qaratilgan harakatlarini qo'llash;
- turli mamlakatlarning tartibga solish organlari faoliyatidagi nomuvofiqliklarni kamaytirish;
- bank faoliyatida ishlatilishi boshlangan balansdan tashqari majburiyatlar bo'yicha risklar hisobini yuritish kabi masalalar yechimiga qaratilgan edi. Shuningdek, bank kapitaliga qo'yilgan talablar 1992-yilning 31-dekabriga qadar bosqichma – bosqich amaliyotga joriy qilishi ko'zda tutilgandi. Bazel kelishuvi asosida kapitalning yetarlilik darajasiga qo'yilgan talablar nafaqat faoliyat ko'rsatayotgan banklar uchun, balki yangitdan tashkil etilayotgan banklarga ham

taalluqlidir. Yangi xalqaro kelishuvga ko'ra bank kapitalining manbalari 2 sinfga bo'lindi:

1 – (asosiy) kapital sinfi o'z tarkibiga oddiy aksiyalar, qo'shimcha kapital, taqsimlanmagan foyda, dividendlar yig'ilishini ko'zda tutmaydigan muddatsiz imtiyozli aksiyalar shuningdek nomoddiy va sezish mumkin bo'lmagan asosiy kapital ayirib tashlangan holdagi konsoditsiyalashgan shu'ba korxonalarining nazorat paketi bo'lmagan aksiyalarini olgan.

2 – (qo'shimcha) kapital sinfiga kreditlar va ijara bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zahirasi, subordinatsiyalangan qarz instrumentlari (jumladan aksiyalar bilan ta'minlangani) kiritildi. 1992-yilning 31-dekabriga qadar qirtilishi lozim bo'lgan kapitalga qo'yilgan va kelishilgan talablarga ko'ra:

1. Asosiy (birinchi) sinf kapitalining risklar hisobga olingan holda hisoblangan aktivlarga nisbati 4% dan kam bo'lmagan miqdorda;

2. Jami (birinchi va ikkinchi sinf kapitali yig'indisi) kapitalning risklar hisobga olingan holda hisoblangan aktivlarga nisbati 8% dan kam bo'lmagan miqdorda o'rnatilgan edi.

Afsuski bu talablar jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida to'lig'icha o'zini oqlamadi va bu sohada yangi talablar va standartlar ishlab chiqish kerakligi yaqqol bilinib qoldi. 2010-yil sentyabr oyida Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi bank kapitali va likvidligining yangi standartlari to'liq ishlab chiqilganligini e'lon qildi hamda noyabr oyida ushbu yangi standartlar katta yigirmalik davlatlari rahbarlarining Seul sammitida tasdiqlandi. Bazel III deya nomlanayotgan ushbu yangi standartlar banklar kapitali yetarliliga minimal talablarning tobora va bosqichma-bosqich kuchaytirishni nazarda tutadi. Ushbu yangi standartlarga katta yigirmalik davlatlarida 2013-yildan boshlab o'tilishi hamda 2019-yilga kelib ushbu davlatlarda banklar o'z kapitallarini Bazel III talablariga to'liq moslashtirishlari kutilmoqda. Bazel kelishuvining yangi Bazel III standartining afzalligi, kamchiligi va bundan oldingi standartlardan farqli jihatlari haqida quyidagi ma'lumotlar orqali bilib olishimiz mumkin: Bazel III da Bazel I va Bazel II dan farqli o'laroq, bank kapitaliga oid qator yangi tushunchalar, jumladan

“Bufer kapitali” deb umumiy nom olgan ikkita: konservatsion hamda kontrosiklik bufer kapitali tushunchalari kiritilmoqda.

Konservatsion kapital iqtisodiy, moliyaviy inqirozlar davrida banklar zararlarini qoplash uchun oʻziga yarasha qalqon sifatida xizmat qilishi kutilmoqda.

Kontrosiklik kapital har bir mamlakat shart-sharoitidan kelib chiqqan holda, 0-2,5 foiz doirasida belgilanadi.

Yana bir yangi tushuncha — bu tizim uchun muhim banklar kapitaliga qoʻshimcha talablardir. Tizim uchun muhim banklar deganda hajmi, murakkabligi hamda tuzilmaviy oʻzaro bogʻlanganligi sababli ularning tanazzulga uchrashi butun moliya tizimi inqiroziga hamda iqtisodiy faollik falajiga sabab boʻladigan banklar tushuniladi. Bazel III da bunday banklar kapitaliga nisbatan qoʻshimcha talablar ishlab chiqilishi lozimligi toʻgʻrisida umumiy kelishuvga kelingan.

Demak, Bazel III ga koʻra, banklar regulyativ kapitali koʻrsatkichi birinchi darajali bank kapitali, konservatsion bufer kapitali, kontrosiklik bufer kapitali hamda tizim uchun muhim banklar kapitaliga qoʻshimcha talablar yigʻindisidan iborat boʻladi.

Tijorat banklarida risk boshqaruvini takomillashtirish lozim. Xalqaro amaliyotda bank menejmentining markaziy boʻgʻini risk boshqaruvi ekanligi allaqachon isbotlangan. Bazel I, Bazel II va Bazel III standartlarining asl mohiyati ham risk va kapital oʻrtasidagi bogʻliqlikda namoyon boʻladi. Bazel III kelishuvining bosh maqsadi – bank ishida risk boshqaruvi sifatini oshirish hisoblanadi.

Bazel III tavsiyalarini qoʻllashdan koʻzlanayotgan asosiy maqsadlar:

- bank sektorining moliyaviy-iqtisodiy tanglikdan kelib chiqadigan inqirozlarga qarshi tura olish imkoniyatini oshirish;
- risk-menejment va boshqaruv sifatini oshirish;
- banklar faoliyati, kapital bazasi shaffofligini (transparentligi) kuchaytirish.

Bazel III negizidagi asosiy yangi talablar:

- kapital yetarliligiga nisbatan yangi talablar (oddiy aksiyalar va taqsimlanmagan foydaga ustuvorlik berish, qo‘shimcha maxsus zaxira kapitalini shakllantirish);
- 2 ta likvidlik koeffitsientiga (liquidity coverage ratio, net stable funding ratio) nisbatan me‘yoriy talablarni joriy etish;
- leveraj koeffitsientini joriy qilish (Bunda koeffitsientning o‘rtacha choraklik darajasi hisoblanadi va dastlabki bosqichda uning me‘yoriy darajasi 3 foiz etib belgilanadi).

Xalqaro Bazel qo‘mitasining kapital yetarliligiga qo‘yilgan yangi talablarini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

1.1-jadval

Bank kapitali yetarliligi bo‘yicha Bazel III talablarini joriy etish muddatlari²⁵ (Tegishli moliyaviy yilning 1-yanvar holatiga)

Ko‘rsatkich nomi	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Bazaviy I darajali kapital (Oddiy aksiyalar + taqsimlanmagan foyda)ga minimal talab	3,5%	4,0%	4,5%	4,5%	4,5%	4,5%	4,5%
Maxsus zaxira kapitali				0,625%	1,25%	1,875%	2,50%
Bazaviy I darajali kapitalga minimal talab + Maxsus zaxira kapitali	3,5%	4,0%	4,5%	5,125%	5,75%	6,375%	7,0%
I darajali kapitalga minimal talab	4,5%	5,5%	6,0%	6,0%	6,0%	6,0%	6,0%
Umumiy kapitalga minimal talab	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%	8,0%
Umumiy kapitalga minimal talab + Maxsus zaxira kapitali	8,0%	8,0%	8,0%	8,625%	9,25%	9,875%	10,5%

Jadvaldan ma‘lum bo‘ladiki I darajali kapitalga minimal talab amaldagi 4 %dan 2013-yil 1-yanvarga kelib 4,5 foizga, 2019-yil 1-yanvarga kelib esa 6 %ga

²⁵ www.bis.org – xalqaro Bazel qo‘mitasining rasmiy veb-sahifasi

etadi. Bazaviy I darajali kapital esa (oddiy aksiyalar + taqsimlanmagan foyda)ga nisbatan talab 2013-yildan boshlab 3,5%, 2015-yildan buyon esa 4,5 % darajasida belgilanadi. Favqulodda holatlar uchun maxsus zaxira kapitali (Capital Conservation Buffer) shakllantirilib, uning me'yoriy darajasi 2019-yilga kelib 2,5% etib belgilanadi. Kontrosiklik zaxira kapitali (Countercyclical Capital Buffer) milliy sharoitlardan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich 2019-yilga kelib bazaviy I darajali kapitalning 2,5 %i miqdorida belgilanadi.

Bundan tashqari Bazel III ga muvofiq, banklarga kapitalning 15 foizidan oshmaydigan miqdorda konsolidatsiyalashmagan moliyaviy muassasalarning odiy aksiyalariga investitsiyalar qilishga ruxsat beriladi. Investitsiyalarning yuqoridagi 15 foizdan ortiq qismi 2018 yilning 1-yanvaridan boshlab kapital tarkibidan 100 foiz chegirib tashlanadi.

Yuqoridagi yangi talablar bank tizimida joriy etishda quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

- Odiy aksiyalar salmog'ini oshirish uchun qo'shimcha aksiyalarni muomalaga chiqarish va investorlarni jalb etish, aksiyalar taklifining ortishi hisobiga aksiya bahosining pasayishi;
- Taqsimlanmagan foyda salmog'ini oshirish borasida aksiyadorlar o'rtasida manfaatlar kelishmovchiligining yuzaga kelishi;
- Iqtisodiy retsessiya sharoitida sof foydani oshirish imkoniyatining cheklanishi;
- Yangi likvidlilik talabini joriy etish hisobiga daromadlilikning pasayishi;
- Banklarning kreditlash ko'lamining qisqarishi va h.k.

Hozirgi kunda kapitalning yetarliligi darajasini nazorat qilishning quyidagi (jahon bank amaliyotida keng qo'llaniladigan) ikki usuli mavjud:

1. Bazel kelishuvi asosida taklif etilayotgan usul;
2. AQSH FZT tomonidan taklif etilgan "CAMEL" reyting tizimi.

Bazel kelishuviga ko'ra kapitalning yetarlilik darajasiga talablar quyidagi ko'rsatkichlar asosida ifodalanadi:

1. 1 – darajali (asosiy) kapital va 2 darajali (qo‘shimcha) kapital o‘rtasidagi nisbat;

2. Bankning asosiy va umumiy kapitali miqdorining risk darajasiga ko‘ra hisoblangan aktivlarga bo‘lgan nisbatini belgilovchi, kapitalning yetarlilik koeffitsiyentlari. Birinchi ko‘rsatkich uchun qo‘yilgan talab - asosiy va qo‘shimcha kapital o‘rtasidagi nisbat 1:1 doirasida bo‘lishi belgilangan, ya’ni qo‘shimcha kapital summasi asosiy kapital summasidan oshib ketmasligi kerak. Ikkinchi ko‘rsatkich bo‘yicha qo‘yilgan talab – asosiy kapital summasi risk darajasiga ko‘ra hisoblangan aktivlar summasiga nisbatan 4% dan (Bazel III ga muvofiq, 2013-yildan 4.5%, 2019-yildan esa 6%) kam bo‘lmasligi, umumiy kapital summasi esa 8% dan (Bazel III ga muvofiq, 2019-yildan 14.5%) kam bo‘lmasligi kerak.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan talablardan kelib chiqqan holda kapitalning ikki qirrasini ko‘rsatish zarur. Bular, birinchidan kapitalning statik qirrasini, ikkinchidan kapitalning dinamik qirrasidir. Kapitalning statik qirrasini juda oddiy tushuntirsa bo‘ladi. Unga asosan, depozitlarni jalb qiluvchi va kreditlovchi, har qanday bank 5 mln. EKYU dan kam bo‘lmagan miqdordagi ustav kapitaliga ega bo‘lishi zarur. Mazkur talabni bajarmagan bank o‘z faoliyatini boshlashi mumkin emas. Amalda faoliyat ko‘rsatuvchi banklarga kapitalning yetmagan qismini to‘ldirish uchun ma’lum vaqt beriladi.

Bu ko‘rsatma (direktiva) Bazel kelishuviga a’zo davlatlar tomonidan 1993 yilning 1-yanvaridan boshlab kuchga kiritilgan. Kapitalning minimal darajasi bank tomonidan barcha majburiyatlarni to‘lagan holda olishi mumkin bo‘lgan zarar summasiga teng bo‘lishi kerak. Bu mijozlar tomonidan bankga ishonib topshirilgan mablag‘larning saqlanishi garovidir. Kapitalning dinamik qirrasini tasniflash birmuncha og‘irroq. U Bazel kelishuviga ko‘ra o‘rnatilgan normativlarga rioya qilinishi bilan bog‘liqdir. Bank ishonchliligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib “Kuk” koeffitsienti (bank kapitalining risk darajasiga ko‘ra hisoblangan aktivlarga nisbati) xizmat qiladi.

1988-yili Bazel kengashi tomonidan bank kapitalini hisoblash usuliga o‘zgartirishlar va aniqliklar kiritildi. Unga ko‘ra bankning asosiy kapitali tarkibiga:

o'tgan yillardan qolgan foyda, soliqlar to'langandan so'ng qolgan sof foydadan tashkil etilgan ochiq zahiralar kiritildi va ularning jami summasi umumiy kapitalning 50% dan kam bo'lmasligi belgilandi. Qo'shimcha kapital esa, e'lon qilinmagan yoki yashirin zahiralar, qayta baholash zahirolari (formal revalvatsiya va qimmatli qog'ozlarning yashirin qayta baholanishi) umumiy zahiralar (qaytishi dargumon bo'lgan kreditlar bo'yicha tashkil etilgan zahiralar), qarz kapitaliga o'xshash gibril instrumentlar (kumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar, aksiyaga aylanish huquqini beruvchi obligatsiyalar), subordinar qarzlardan iborat bo'ldi.

Bazel kengashi talablariga binoan, kapital yetarliligi hisob – kitobi banklar moliyaviy hisobotining maxsus shakllarida ifoda etilishi ko'zda tutilgan. Bank aktivlarining risk darajasi kengash talablariga ko'ra 0%, 20%, 50%, 100% tortilgan aktivlarga bo'lindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi "2015 - 2019 - yillarda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2344-sonli qaroriga muvofiq, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va likvidliligini yanada oshirish, ularning resurs bazasini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi. Qarorga muvofiq bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan tijorat banklariga nisbatan qo'yiladigan me'yoriy talablarni yanada takomillashtirishni, jumladan, kapitalning yetarliligi va likvidlilik ko'rsatkichi bo'yicha yangi talablarni nazarda tutgan yangi standartlar va tavsiyalar (Bazel-III standartlari) ishlab chiqilgan.

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalariga muvofiq tijorat banklarining kapital yetarliligiga nisbatan talablarni oshirish, tijorat banklari tarkibida ularning inqiroz holatlari ta'siriga barqarorligini ta'minlaydigan barqarorlashtirish zaxiralarini yaratish maqsadida Markaziy bank tomonidan Jahon banki va Xalqaro valuta jamg'armasining xalqaro ekspertlari bilan birgalikda bank nazoratiga oid me'yoriy hujjatlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish ishlari olib borildi.

Xususan, yangi tartibga asosan bank balansi aktivlari tavakkalchilik darajasi besh guruhga bo'linib, 150 foizlik tavakkalchilik koeffitsienti qo'shimcha joriy qilindi. Ya'ni, sud jarayonidagi va belgilangan tartibda undirilmagan aktivlarga 150 foizli tavakkalchilik darajasi qo'llaniladi.

Ushbu yangi o'zgarishlarning kiritilishi, albatta, bank nazoratiga oid me'yoriy hujjatlarning xalqaro standartlar asosida takomillashishiga olib keladi. Lekin masalaga boshqa tomondan ham qarash lozim. Riskka tortilgan aktivlarni hisoblashda yangi risklarning qo'shilishi bank kapitali yetarliligi ko'rsatkichining keskin tushib ketishisha olib keladi. Chunki operatsion riskka tortilgan aktivlar miqdori ko'pchilik tijorat banklarida katta summani tashkil etishi mumkin.

1.3 Xorijiy davlatlarda bank kapitalini shakillantirish amaliyoti (Rossiya davlati misolida)

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish, avvalo banklarning barqaror faoliyat olib borishlari uchun, shuningdek mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim omillardan biri sanaladi. Shuning uchun banklar kapitalini oshirib borish hozirgi kunning dolzrab vazifalaridan biriga aylandi. Ayniqsa jahon moliyaviy-inqirozi bo'lgan davrda ko'plab banklarning tanazzulga yuz tutgani bizga yaqin tarixdan saboqdir.

Ta'kidlash lozimki, bu masala har bir mamlakat uchun o'z oldilariga qo'ygan strategik vazifalardan sanaladi. Shuning uchun banklar kapitalini oshirish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va amaliyotga tadbqiq etish, o'ylaymizki bu borada o'zimiz uchun yangi yo'llarni kashf qilamiz. Shu masalani inobatga olgan holda Rossiya bank tizimining amaliyotni o'rganishga qaror qildik.

Rossiya bank tizimining eng muhim muammolaridan biri bo'lgan, ayniqsa inqirozdan keyingi davrda tijorat banklarini, xususan, kichik va o'rta banklarni kapitalizatsiya qilish, ularning kapitali hajminining o'sish omillari, kapitalning yetarlilik darajasini qiyosiy tahlil qilgan holda ko'rib chiqamiz.

O'z mablag'lari tijorat bankining moliyaviy resurslarining ajralmas qismi bo'lib, odatda, qo'llab-quvvatlash va rivojlanishning eng ishonchli vositalaridan

biridir. Tijorat banklarining faoliyati Bazel qo'mitasi tavsiyalariga asosan tartibga solinadi. Bu esa o'z navbatida banklarning tijorat maqsadlarida ustav kapitalining minimal qiymatiga qo'yiladigan talablarni qat'iy belgilab qo'yilishini ko'zda tutadi.

O'z-o'zidan mol-mulkning iqtisodiy mohiyati uning bajaradigan o'rni bilan belgilanadi. O'z mablag'lari asosan moliyalashtirish manbai hisoblanadi, iqtisodiy va moliyaviy faoliyatining boshlang'ich bosqichida amalga oshiriladi. Kelajakda yetakchi qiymat o'zining kapitali - bu bankning o'sishini shakllantirishi, bu xavf darajasini normal qabul qilish bilan o'zi bajaradigan vazifalar orqali o'zini namoyon qiladi.

Bankning o'z kapitali himoyalash funksiyasini amalga oshiradi. Agar bank tugatilsa, u omonatchilarga kompensatsiya to'lab berishi ham mumkin. Bundan tashqari, to'lov qobiliyatini saqlab qolish, aktivlar uchun zaxiralar yaratib, inqirozli vaziyatlar xavfiga qaramasdan, bankning ishlashiga imkon yaratib beradi. Qolaversa kreditning rivojlanishi kapital miqdoriga bog'liqdir. Miqdoriy bosqich quyidagi baholashni o'z ichiga oladi:

1. Ro'yxatga olingan ustav kapitalining banklar kapitalidagi o'sish (pasayish) darajasi;

2. Kapitalga qo'yiladigan talablariga javob beradigan kredit tashkilotlarining aksiyalari.

Biz quyidagi jadval orqali so'nggi to'rt yil ichida Rossiya tijorat banklari kapitali hajmining o'sish dinamikasi tahlil qildik.

1.2- jadval

Rossiya tijorat banklarining xususiy kapitalining dinamikasi²⁶

№	Ko'rsatkichlar	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil
1	O'z kapitalining hajmi (million rubl)	7064649	7928438	9008553	9387078
2	O'z mablag'lar kapitalining o'sish sur'atlari%	15,6	12,2	13,6	4,2
3	Xususiy kapitalni YaImga nisbatan	9,9	10,2	11,1	10,9
4	Xususiy kapitalni aktivga nisbatan	12,3	10,2	10,9	11,7

²⁶ Центральный Банк Российской Федерации. Показатели деятельности по группам кредитных организаций. (http://www.cbr.ru/statistics/?PrtId=pdko_sub)

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'z kapitalning dinamikasi ijobiy. 2014-yil boshida o'sish 32,87 foizni tashkil qilgan. 2014-yil krizis davrida o'z kapitalini YaIMga nisbati 0,7 punktga kamaygan, lekin 2017-yilda 10,9 foizga ko'tarilgan. Kapitalning absolyut oshishi tufayli o'z kapitalning aktivlarga nisbatining 0,6 punktga kamayishini salbiy deb bo'lmaydi.

Ma'lumki, tenglik funksiyalari asosida faol operatsiyalarni rivojlantirish kerak. Ushbu masala asosan jalb qilingan resurslar asosida amalga oshiriladi. Statistika ko'ra, aktivlarning o'sish sur'ati jalb qilingan resurslarning o'sish sur'atlariga yaqinlashganini ko'rishimiz mumkin.

1.3-jadval

Kapital tushumlarning nisbati, jalb qilingan depozit resurslari va Rossiya tijorat banklarining aktivlari²⁷

№	Ko'rsatkichlar	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil
1	Aktivlar	16	35,2	6,9	-3,5
2	Xususiy kapital	15,6	12,2	13,6	4,2
3	Jalb qilingan resurslar	19	9,4	25,2	4,2

Lekin shuni hisobga olish zarurki, o'z kapital yetarlilik ko'rsatkichi ijobiy emas. Rossiya federatsiyasida o'z kapitali 300 mln rubl va undan yuqori bo'lgan banklar ulushi 2014-yilda 45.3, 2015-yilda 50.1, 2016-yilda 52.3, 2017-yilda 53.9 va 01.03.2017 holatiga 54.0 % ni tashkil qildi. Bunday banklar ulushi oshayotganligiga qaramay, bu banklarning soni butun banklar jami hajmida katta ulushga ega emas.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2014-2017-yillarda jami kapital hajmi ustav kapital, emission daromad, kredit tashkilotlari fondi va foydasi, mol-mulk bahosining qayta baholash hisobiga o'sishi kabi omillar hisobiga oshgan.

Yuqoridagi omillar strukturasi tahlilini keyingi jadval orqali tahlil qilib, kapital pasayish manbalarini aniqlaymiz.

²⁷ Центральный Банк Российской Федерации. Показатели деятельности по группам кредитных организаций. (http://www.cbr.ru/statistics/?PrtId=pdko_sub)

1.4-jadval

Banklarning kapital o'sishi omillari²⁸, mlrd.rublda

№	Ko'rsatkichlar	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil
1	Banklarning kapital o'sishi omillari mlrd.rubl	8202	9337,9	11233,4	11506,5
2	Ustav kapital	1533,2	1914,3	2416,3	2458,3
3	Emissiyon daromad	1347,5	1421,3	1451,5	1497,7
4	Foyda mablaglari	3377,7	3761,5	4112,3	4721,7
5	Qabul qilingan subordinatsiyalangan Kreditlar	1723,2	2018,3	3026,7	2632,9
6	Mulk qiymatining ortishi sababli qayta baholash	220,5	222,4	226,5	213,9

Bu davrda kapital pasayish manbalari biroz kamroq bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bu omillardan asosiysi kredit tashkilotlari tomonidan mustaqil yuridik shaxslar va kredit tashkilotlar-rezidentlar aksiyalariga qilingan qo'yilmalar (kapitalga nisbatan 11-16 %) va zarar (1.5-2.7 % kapitalga nisbatan) hisoblanadi. Umuman olganda esa, kapital bazasining o'sishi va kamayish dinamikasi 2014-2017-yillarda kapital hajmi o'sishidan dalolat bermoqda.

1.5-jadval.

Rossiya banklari tomonidan Bazel III tavsiyalarini amalga oshirish²⁹

№	Ko'rsatkichlar	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil
1	8% dan kam	0,1	1,4	3,8	4,4
2	8%dan 10% gacha	—	—	0	1,1
3	10% dan 12% gacha	18,8	47	39	19,1
4	12% dan 14% gacha	64,6	39,4	35	50,3
5	14% va undan yuqori	16,6	12,2	22,2	25,1

²⁸ Обзор банковского сектора Российской Федерации. Влияние отдельных факторов на величину собственных средств (капитала) банковского сектора. (<http://www.cbr.ru/analytics/PrtId=bnksyst>)

²⁹ Обзор банковского сектора Российской Федерации. Влияние отдельных факторов на величину собственных средств (капитала) банковского сектора.

2014-2017-yillarda kapital hajmi bo'yicha bank rivojlanishini quyidagi ijobiy tendensiyalarda ko'rib o'tish mumkin:

1. Barqaror manbalar hisobiga bank o'z kapitali o'sish suratinig ortishi
2. Regulyator talablariga javob beruvchi ustav kapitaliga ega bo'lgan banklar ulushining regionlar taqsimida notekis, lekin doimiy ravishda oshishi
3. YaIMga nisbatan kredit tashkilotlari o'z kapitalining o'sish suratinig nobarqarorligi
4. Rossiya banklari kapitalining kapital yetarlilik me'yorlariga nisbatan ijobiy ekanligi.

Lekin shuni qayd etish joizki, bu ijobiy tendensiyalar kapital bazasining talab me'yorlarini talab darajasini qondira olmadi. Deyarli jami banklarining yarmi regulyator talablariga javob beruvchi kapitalga ega emas. Kapitalizatsiya darajasi bo'yicha ayniqsa, shimoliy Kavkaz va jabuniy Federal okruglari ortda qolmoqda.

Bu holat Rossiya banklariga xorijiy hamkorlar tomonidan qo'llanilayotgan sanksiyalarga nisbatan kapitalning himoya funksiyasining oshishi, bank mijozlar bazasiga salbiy tasir ko'rsatayotgan Rossiya iqtisodiy o'sish tempining stagnatsiyasi bilan bog'liq.

I bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda tijorat banklari bajarayotgan barcha operatsiyalar bevosita yoki bilvosita bank kapitalining yetarliligi va uning sifatiga bog'liq bo'lib, har qanday tijorat bankining to'lovga qobilligini va risklardan holiligini baholashda bank kapitalining yetarliligi asosiy omil hisoblanadi. Tijorat banklarining yetarli miqdorda bank kapitaliga ega bo'lishi, ularning to'lovga qobilligi va likvidligini ta'minlash, shuningdek, faoliyati davomida duch keladigan risklardan zarar ko'rmay chiqib ketish imkoniyatini beradi.

Ayniqsa, bugungi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi bank tizimining barqarorligi ta'minlanishida bank kapitali va uning yetarlilik darajasini zaruriy omil qilib qo'yimoqda. Buni xorij amaliyotida, xususan Rossiya davlati misolida ham ko'rib chiqdik.

Shuning uchun ham hozirgi kunda xalqaro bank amaliyotida bank kapitali tarkibini shakllantirish va uning yetarlilik darajasini belgilashda Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlardan asos sifatida foydalanib kelinmoqda.

Mazkur bobimizda biz asosan bank kapitalini iqtisodiy mazmunini ochib berishda xorij olimlari va mahalliy olimlar ilmiy ishlarini qiyosiy o'rgangan holda o'z fikrimizni atroflicha bayon etdik. Shuningdek bank kapitali yetarliligini ta'minlashda xalqaro me'yorlarni, xususan Bazel III tavsiyalarini, ularning xususiyatlarini ham iqtisodiy ahamiyatini o'rganib chiqdik. Xorij amaliyoti tahlili davomida Bazel III tavsiyalarini qabul qilayotgan davlatlar soni kengayib borayotganligini ko'rdik. Ushbu tavsiyalarning banklar amaliyotida qo'llanilishi, o'ylaymizki, banklarda turli paydo bo'lgan yoki paydo bo'lishi kutilyotgan xatarlarni oldi olinishiga zamin yaratiladi.

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING KAPITALLASHUV DARAJASINI AMALIY HOLATI TAHLILI

2.1 Tijorat banklarining kapitali tarkibi va dinamikasi

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi avvalambor, unda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari bilan chambarchas bog'liq. Xalqaro bank amaliyoti tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari kapitalining samaradorligini va uning yetarlirliligini ta'minlamasdan turib, banklarning to'lov qobiliyatini mustahkamlash va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini qozonish mushkul vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish va mustahkamlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, iqtisodiyotni kreditlash ko'lamini kengaytirish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari spektorlarini ko'paytirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini berdi. Shu bilan birga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda tadbirkorlik subyektlari bilan to'laqonli hamkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo'jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash vazifalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

2017—2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" 5177-sonli Farmoni, shuningdek, bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, xalqaro tajribani hisobga olgan holda, bank tavakkalchiligini baholashni takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning zamonaviy tamoyillari hamda mexanizmlarini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi 3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori qabul qilindi. Ushbu


qaror asosida 2017-yilning 1-oktabridan ustav kapitalining (fondining) minimal miqdori yangi tashkil etiladigan: tijorat banklariga 100,0 mlrd. so'm; mikrocredit tashkilotlariga 2,0 mlrd. so'm; lombardlarga 500 mln. so'm etib belgilandi. Tijorat banklari, mikrocredit tashkilotlari va lombardlar 2019-yilning 1-yanvarigacha ustav kapitallarining minimal miqdorlarini mazkur bandga muvofiq belgilangan minimal talablar darajasiga keltirilishi ko'zda tutilgan.

Tijorat banklari kapitalini oshirish yuzasidan qisqa muddat ichida respublika ahamiyatiga molik bo'lgan yuqoridagi qarorning qabul qilinishi mazkur masalaning naqadar dolzarb ekanligidan dalolat beradi va ularning bajarilishi banklar kapitalining sezilarli darajada oshishiga sabab bo'ladi deb o'ylaymiz.

Aytib o'tish joizki, hozirgi kunda mamlakatimizda tijorat banklari kapitalining yuqori sur'atlar bilan o'sishi jarayoni kechmoqda. Bunday o'sishga nafaqat davlat ulushi bor banklar, balki boshqa tijorat banklarining ham erishayotgani bank biznesi uchun mamlakatimizda qulay muhit yaratilganligini ko'rsatadi. Bank tizimi ko'rsatkichlari nafaqat xalqaro umum qabul qilingan me'yorlarga javob beradi, balki ayrim yo'nalishlar bo'yicha undan ham yuqori baholarga erishmoqda. Xususan, bank kapitali bo'yicha qo'yilgan minimal talablar bo'yicha tijorat banklarimizni aksariyati, bank kapital yetarliligi me'yordan ham yuqori darajada bajarib kelmoqda.

Biz quyidagi rasm orqali mamlakatimizda tijorat banklarining regulyativ kapitalining dinamikasini ko'rib chiqamiz. Chunki regulyativ kapital tijorat banklari uchun kapital yetarlirlilik ko'rsatkichini hisoblashda asosiy ko'rsatkich hisoblanadi va bu orqali banklarning moliyaviy holatiga baho beriladi.

Biz quyida tijorat banklari regulyativ kapitalining miqdorini o'zgarish dinamikasini tahlil qilamiz. Tahlil jarayonida biz, asosan oxirgi uch yillik ma'lumotlardan va 2018-yil I chorak ma'lumotidan foydalandik. Rasm ma'lumoti orqali umumiy kapitali yetarliligi tahlili 2015-2017-yillar oralig'ida bu ko'rsatkichning Bazel talablaridan 2-3 barovar yuqori bo'lgani ko'rishimiz mumkin.




2.1-rasm. Mamlakatimiz tijorat banklari regulyativ kapitalining miqdori³⁰ (mlrd.so'm)

2015-yilda 6921,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan, 2016-yilda 8460,1 mlrd. so'm bo'lgan. 2017-yil yakunida eng yuqori ko'rsatkichga erishilib 19992,8 mlrd.so'mni tashkil etib, 2015-yilga nisbatan 2,9 barobarga, 2016-yilga nisbatan esa 2,3 barobarga oshgan. 2018–yil 1-choragida esa 22541,7 mlrd so'mni tashkil qilgan. Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, respublikamiz tijorat banklarida kapital yetarliligiga qo'yilgan talablar yuqori darajada ta'minlangan va yil sayin yuqori o'sish tempiga ega bo'lib bormoqda. Bu esa banklarning kapitali muntazam oshirilib borishidan dalolat beradi.

Bank tizimining moliyaviy holatiga baho berishda banklarning birinchi darajali kapitali ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bankning umumiy kapitali tarkibida asosiy qismini I darajali kapital tashkil qiladi va barqarorligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimiz tijorat banklarining birinchi darajali kapitali xalqaro me'yorlardan ancha yuqoriligini quyidagi rasmni tahlil qilib ko'rishimiz mumkin.

Bunda ham biz asosan oxirgi uch yillik ma'lumotni va joriy yil I choragi ma'lumotlaridan foydalangan holda tahlil qilib chiqdik. Banklarning birinchi darajali kapitali yillar davomida o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

³⁰www.cbu.uz, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzildi




2.2-rasm. Mamlakatimiz tijorat banklarida birinchi darajali kapitalining miqdori³¹ (mlrd.so'm)

Rasm ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, tijorat banklarining I darajali kapital yetarliligi 2015-yil 1-yanvar holatiga 5896,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yil 1-yanvar holatiga 7179,4 mlrd so'mni, 2017 yil esa 17627,1 mlrd.so'mni tashkil etib, 2015-yilga nisbatan 3 barobarga, 2016-yilga nisbatan esa 2,5 barobarga oshganligini ko'rishimiz mumkin. 2018-yilning birinchi choragida esa 20620 mlrd.so'mni tashkil qilgan. Yil oxirida esa o'tgan yillarga nisbatan yanada o'sish hajmiga ega bo'lishini qo'rqmasdan taxmin qila olamiz. Bu esa, Bazel talablaridan deyarli ancha ko'proq deganidir.

Demak, bank tizimida tijorat banklarining barqaror manbalar hisobidan kapitallashuviga e'tibor qaratilgan. Tijorat banklari II darajali kapital yetarliligining ham bu darajasi ularning kapitallashuv darajasini yanada oshirish istiqboli mavjud ekanligini belgilaydi. Chunki banklarning sof foydasi ikkinchi darajali kapital tarkibida turadi.

Biz quyidagi rasm orqali banklarning ikkinchi darajali kapitalini tahlil qilamiz va baho beramiz.

³¹ www.cbu.uz, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzildi



2.3-rasm. Mamlakatimiz tijorat banklarida ikkinchi darajali kapitalning miqdori³² (mlrd.so'm)

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinmoqdaki, mamlakatimiz barcha tijorat banklari ikkinchi darajali kapitali ham yil sayin ortib bormoqda. Xususan 2015-yil 1024,6 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2017-yilda 2365,7 mlrd.so'mni tashkil qilib 2015-yilga nisbatan 1341,1 mlrd.so'mga oshgan. 2018-yil birinchi chorakda 1921,7 mlrd.so'mni tashkil qilgan.

2018-yil I chorakda 2017-yil yakuniga nisbatan kam ekanligiga e'tibor qaratish lozim. II darajali kapitalning kamayishi joriy yilning sof foydasi hisobiga yuz bergan. Ya'ni 2017-yil yakunida II darajali kapital tarkibida mavjud bo'lgan joriy yilning sof foydasi 2018-yilda I darajali kapital tarkibiga taqsimlanmagan foyda ko'rinishida qo'shilgan. Demak, banklar kapitali yildan yilga o'sish tendensiyasiga ega bo'lib bormoqda.

Bugungi kunda tijorat banklari respublikamizning barcha mintaqalarida o'z muassasalariga ega bo'lib, mamlakatimiz aholisi va xo'jalik subyektlarining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati ko'rsatkichlari eng rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetdi. Buning sababi esa davlatimiz tomonidan bank tizimini yanada

³² www.cbu.uz, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzildi

takomillashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasi deb o'ylaymiz.

Tijorat banklarining kapitallashuvi jarayonini tahlil qilishda, ularning tarkibiy tuzilmasi va manbalariga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadvalda respublikamiz tijorat banklari kapitali tarkibi va ularning manbalari keltirilgan.

2.1-jadval

Tijorat banklari kapitali tarkibi va ularning manbalari³³

T/r	Bank kapitali tarkibi	Ulushi %	Manbasi
1	Ustav kapitali	27	Bank ta'sischi'lari va aksiyadorlari mablag'i
2	Qo'shimcha kapital	2	Bank aksiyalarining bozor va real qiymatlari o'rtasidagi farq
3	Zaxira kapitali	50	Bank daromadi
4	Taqsimlanmagan foyda	11	Bank daromadi
5	Joriy yilning sof foydasi	10	Bank daromadi
6	Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari	-	Bank kreditorlari mablag'lari
7	Konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalariga qilingan qo'yilmalar	-	Bank daromadi
Jami		100	

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, respublikamiz tijorat banklari kapitalining 71 foiz bank daromadlari hisobiga tashkil etilgan, qolgan 29 foiz aksionerlar mablag'lari va aksiya oldi-sotdisida hosil bo'lgan daromad hisobiga shakllangan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari mavjud emas.

Shunday ekan, bankning kapitallashuv jarayonida uning daromadlari miqdori muhim o'rin egallaydi. Kapitalning asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri bank daromadlari hisobidan shakllanadi. Bundan tashqari, yana shuni e'tirof etish lozimki, bank ustav kapitalining oshib borishida ham uning daromadlari ko'lam muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bank yuqori daromad olsa va aksionerlarga dividend tariqasida ko'proq daromad to'lasa, o'sha bankning aksiyalari jozibador hisoblanadi va fond bozorlarida unga talab oshib boradi.

³³ www.cbu.uz internet sayti asosida hisoblandi

Tijorat banklarida subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarining mavjud emasligi tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlar bozoridagi mavqeining zaifligidan dalolat beradi. Chunki subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari tijorat banklariga uzoq muddatli resurslarni jalb qilishning qulay va kam xarajatli vositasi hisoblanadi.

Tijorat banklari jami kapitali tarkibida konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalariga qilingan qo'yilmalar mavjud emasligi jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinmoqda. Buning sababi shundan iboratki, aslida banklar birlashgan korxonalarga ulush kiritishmoqda. Lekin bizda Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari(MHXS) amal qilmaganligi uchun bu investitsiyalarni kapital hisobida aks ettirib bo'lamayapti.

Mamlakatimizda yerga egalik qilish huquqi bo'lmasada, har yilgi bank binolarini qayta baholash keoffisienti 1,15-1,2 ga teng. Bu esa rivojlangan davlatlarda yerni qo'shib hisoblasa ham buncha chiqmaydi. Lekin shunga qaramasdan tijorat banklari kapitali tarkibida qayta baholash zaxirasining salmog'i juda kam. Xolbuki, rivojlangan xorijiy davlatlarda qayta baholash zaxirasi banklar qo'shimcha kapitalning asosiy qismini tashkil etadi. Buning sababi, yirik va o'rta tijorat banklari katta shaharlarda yuqori balans qiymati mavjud binolarga egadirlar.

Binolarning bozor bahosi, odatda, o'sish tendentsiyasiga ega. Bunday sharoitda yuqori qiymatga ega bo'lgan binolarning bozor bahosi o'sishi natijasida katta miqdordagi qayta baholash zaxirasi paydo bo'ladi. Binolardan tashqari banklarga tegishli yerlarning bozor bahosi oshishi natijasida qayta baholash zaxirasining miqdori oshadi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda tijorat banklariga tegishli yerlar ularning xususiy mulki hisoblanadi. Shu sababli yerlar bahosining o'sishi hisobiga yuzaga kelgan zaxira miqdori to'g'ridan-to'g'ri bankning qo'shimcha kapitali tarkibiga kiritiladi.

Quyida biz ayrim tijorat banklarining xususiy kapitalini tarkibi va dinamikasini ko'rib chiqamiz. Kapital tarkibini chuqurroq tahlil qilsak, o'ylaymizki, mavjud muammonlarni yechimini oson topamiz.

2.2-jadval


AT "Aloqabank" ning xususiy kapitali tarkibi va dinamikasi, ming so'mda³⁴

№	Ko'rsatkichlar	2016-yil	2017-yil	O'zgarishi
1	Oddiy aksiyalar	117212570	238322570	121110000
2	Imtiyozli aksiyalar	2252886	2252886	0
3	Emission daromad	3912342	3912342	0
4	Jami aksiyadorlik kapitali	123377798	244487798	121110000
5	Investitsiyalarni qayta baholash uchun zaxiralar-sotish uchun mo'ljallangan	0	0	0
6	Taqsimlanmagan foyda	73581234	129748536	56167302
7	Jami xususiy kapital	196959032	374236334	177277302

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Aloqabankning xususiy kapitali o'sish tendensiyasiga ega ekan. Chunki xususiy kapital tarkibidagi oddiy aksiyalar va taqsimlanmagan foyda hajmi tadrijiy o'sgan. Lekin imtiyozli aksiyalar va qo'shilgan kapital (emission daromad) o'zgarishsiz qolgan. Buni ijobiy holat deb baholaymiz. Chunki imtiyozli aksiyalar I darajali kapital tarkibiga kiritilmaydi. Shuning uchun bu e'tiborga molik holat. Umumiy olganda bankning xususiy kapitali 2017-yilda 374236334 ming so'mni tashkil qilgani holda o'tgan yilga nisbatan 177277302 ming so'mga oshgan.

Lekin shu o'rinda bir narsaga e'tibor qaratishni istardikki, bank kapitali tarkibida ustav kapitalining ahamiyati yuqoridir. Chunki ustav kapitali bank kapitali ichida eng barqaror manba hisoblanadi. Shuning uchun ham banklar ustav kapitalini oshirishga harakat qilishadi. Bank kapitali tarkibida ustav kapitalining yuqori bo'lishi, bankka bo'lgan ishonchning yuqori bo'lishiga olib keladi. Biz quyidagi rasm orqali Aloqabankning ustav kapitalini o'sish dinamikasini ko'rib chiqamiz.

³⁴ Aksionerlik-tijorat "Aloqabank"ning moliyaviy holati to'g'risidagi hisoboti. Bank axborotnomasi №14 2018-yil 5-aprel



2.4-rasm. AT "Aloqabank" ning ustav kapitali dinamikasi, mln. so'mda³⁵

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bankning ustav kapitali 2016-yilda 117443 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2017-yilda esa bu ko'rsatkich 238553 mln.so'mni tashkil qilib, 121110 mln.so'mga yoki 2 barobarga oshgan.

Ustav kapitalini banklar uchun eng barqaror manbaligini hisobga oladigan bo'lsak, AT "Aloqabank"ning kapitallashuv darajasiga ijobiy baho berishimiz mumkin.

Banklar kapitaliga ta'sir etuvchi omillarni kengroq o'rganish maqsadida TIF Milliy bankning xususiy kapitali tarkibini ham taqqoslashga qaror qildik.

2.3-jadval

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki kapitali tarkibi va dinamikasi, mln.so'm³⁶

№	Ko'rsatkichlar	2016-yil	2017-yil	O'zgarishi
1	Ustav kapitali	698867	1267530	568663
2	Sotish uchun mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar bo'yicha zaxira	8915	8915	0
3	Taqsimlanmagan foyda	787267	2918224	2130957
4	Boshqa zaxiralar	20712	51833	31121
5	Aksiyadorlarga tegishli jami kapital	1474336	4246502	2772166
6	Ishtirokchining nazorat qilinmaydigan ulushi	806	25261	24455
7	Jami kapital	1475142	4271763	2796621

³⁵ Aksionerlik-tijorat "Aloqabank"ning moliyaviy holati to'g'risidagi hisoboti. Bank axborotnomasi №14 2018-yil 5-aprel

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining moliyaviy holati to'g'risidagi hisoboti. Bank axborotnomasi №117-18 2018-yil 26-aprel

Jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, bankning kapitali o'sish tempiga ega. Xususan bankning aksiyadorlarga tegishli jami kapitali: ustav kapitali, taqsimlanmagan foyda va zaxirlar 2016-yilda 1474336 mln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2017-yilda 4246502 mln.so'm ni tashkil etib 2772166 mln.so'mga, ya'ni 2,9 martaga oshgan. Ishtirokchilarning nazorat qilinmaydigan ulushi ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Jami kapital ham 2017-yilda 4271763 mln.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 2796621 mln.so'mga, ya'ni 1,5 barobarga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi tahlillar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklari kapitallashuv jarayonlarini yuksaltirish uchun albatta birinchi navbatda ularning aksiyalari jozibadorligini oshirish, shuningdek faoliyat samaradorligini, daromadlilikini orttirish, olingan sof daromadlarning bir qismini doimiy ravishda bank kapitalini ko'paytirishga qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Yuqorida tahlil qilingan O'zbekiston Respublikasi yirik banklari kapital tarkibini ko'rib chiqdik, banklarning yildan yilga kapitali o'sib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Kapitalning o'sishiga asosan bank foydasining yo'naltirilishi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buni esa O'zbekiston bank tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan deb baholasak bo'ladi.

Buning uchun, albatta, birinchi navbatda bank aktivlari tarkibida muammoli aktivlar miqdorini minimal darajaga qisqartirishga e'tibor qaratish lozim. Tijorat banklari tomonidan mavjud muammoli aktivlarni tezda bartaraf etilishini ta'minlovchi chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va kelgusida muammoli aktivlarning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik siyosati qat'iy ravishda belgilab olinishi kerak bo'ladi.

Bundan tashqari banklarning devalvatsiya zaxirasini kamaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki aynan shu manba ham bank kapitali uchun nobarqaror manba hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi 3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bankining

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki va “Asaka” ATBning avval xorijiy valyutada shakllantirilgan ustav kapitallarini belgilangan tartibda xorijiy valyutani sotish yo‘li orqali milliy valyutaga o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berildi.

Shuningdek, mazkur qarorga muvofiq, tijorat banklari tomonidan valyuta mablag‘larini sotishdan olingan daromad (foyda) soliqqa tortish bazasiga kiritilmaydi va ularning aksiyadorlari ulushini oshirishda foydalanishlari e‘tirof etilgan.

2.2 Tijorat banklari kapitalining yetarliligi holati tahlili

Bugungi kun talabidan kelib chiqib, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlari qatorida bank tizimining chuqur va samarali isloh etilishi, milliy iqtisodiyotimizning yanada taraqqiy etishida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri, ular kapitalining yetarlirliligi va uni barqaror manbalar hisobidan shakllantirilganligidir.

Ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlardagi singari, respublikamizda ham iqtisodiy islohotlarning tobora chuqurlashuvi tijorat banklari kapitali barqarorligini ta‘minlash va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi PQ–2344-son “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq va Markaziy bank tomonidan “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 2693-sonli Nizom ishlab chiqildi. Ushbu nizom tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi 3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori asosida 2018-yil 27-mayda ushbu nizomga o‘zgartirish kiritildi. Bunga ko‘ra biz tijorat banklari kapitalining yetarlirliligi

tahlil qilishda to'rtta asosiy ko'rsatkich dinamikasini ko'rib chiqamiz. Ular quyidagilar:

2.4-jadval

Kapitalning monandligiga qo'yilgan minimal talablar³⁷ (%)

Talab kuchga kirish sanasi	Regulyativ kapitalga, (K1)	I darajali kapitalga, (K2)	I darajali asosiy kapitalga, (K3)	Leveraj, (K4)
01.01.2017	12,5	9,5	7,5	6
01.01.2019	13	10	8	6

Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati 12,5foizdan kam bo'lmasligi kerak. Regulyativ kapitalning monandlik koeffitsienti K1 quyidagi tarzda hisoblanadi:

$$K1 = RK / TAUS. (1)$$

2019-yil 1-yanvardan boshlab banklar tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3,0 foiz miqdoridagi kapitalni konservatsiya qilish buferini hisobga olgan holda K1 ning eng kichik darajasini 0,13 (13,0 foiz) miqdorida ta'minlashlari shart.

Kapitalning konservatsiya buferi tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3,0 foiz miqdoridagi qo'shimcha zaxiradan iborat. Bunday zaxiradan maqsad banklar tomonidan moliyaviy va iqtisodiy qiyinchilik davrlarida zararlarni qoplash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan kapital zaxirasining ta'minlanishini kafolatlash hisoblanadi.

Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy miqdori (TAUS) quyidagi tarzda hisoblanadi:

TAUS = CHegirmalar chiqarilgan tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi balans va balansdan tashqari aktivlar summasi + Operatsion tavakkalchiliklar summasi (OT) + Bozor tavakkalchiliklari summasi (BT);

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/3-son (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 6-iyulda 2693-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori/O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2015. - №27 (683). – 360-modda.

$OT = (100 / \text{belgilangan } K1 \text{ ning eng kichik darajasi}) \times (\text{Bankning oxirgi uch yildagi yalpi daromadining o'rtacha summasi} \times 15 \text{ foiz});$

$\text{Yalpi daromad} = (\text{foizli daromadlar} - \text{foizli xarajatlar}) + (\text{foizsiz daromadlar} - \text{foizsiz xarajatlar}).$

Agar yalpi daromad qaysidir yilda nolga teng yoki salbiy ko'rinishda bo'lganda, o'rtacha ko'rsatkichni hisoblashda u maxrajdan va suratdan chiqarib tashlanishi lozim.

$BT = (100 / \text{belgilangan } K1 \text{ ning eng kichik darajasi}) \times (\text{Ochiq valuta pozitsiyalarining jami miqdori} \times 10 \text{ foiz}).$

Ochiq valuta pozitsiyalarining umumiy summasini hisoblashda xorijiy valutilarning umumiy uzun yoki umumiy qisqa ko'rsatkichlari yig'indisining mutloq ko'rsatkichining eng kattasi olinadi.

I darajali kapitalning monandlik koeffitsienti $K2 = \text{I darajali kapital} / \text{TAUS}$ sifatida aniqlanadi.

Kapitalning konservatsiya buferi tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi barcha aktivlarning 3,0 foiz sifatli I darajali kapital bo'lishini hisobga olgan holda $K2$ koeffitsienti 2017-yilning 1-yanvaridan 0,095 (9,5 foiz) va 2019 -yilning 1-yanvaridan 0,10 (10,0 foiz) miqdoridan kam bo'lmasligi lozim.

I darajali asosiy kapitalning monandlik koeffitsienti $K3 = \text{I darajali asosiy kapital} / \text{TAUS}$ sifatida aniqlanib, uning eng kichik miqdori 0,075 (7,5 foiz)dan kam bo'lmasligi kerak.


2019-yil 1-yanvardan boshlab $K3$ ning eng kichik darajasini 0,08 (8,0 foiz) miqdoridan kam bo'lmasligi lozim.

Kapitalning monandlik darajasi talablari bilan bir qatorda banklar leveraj koeffitsientiga rioya etishlari kerak.

$K4 = \text{I darajali kapital} / (\text{Umumiy aktivlar} + \text{balansdan tashqari moddalar} + \text{hosilaviy vositalar} - \text{I darajali kapitaldan chegirmalar}).$ Leveraj koeffitsientining eng kichik darajasi 0,06 (6 foiz)ga teng bo'lishi belgilangan.

Mazkur nizom talablaridan kelib chiqqan holda har bir ko'rsatkich tahlilini ko'rib chiqamiz.

Hozirgi kunda mamlakatimizda tijorat banklari kapitalining yuqori sur'atlar bilan o'sish jarayoni kechmoqda. Bunday o'sishga nafaqat davlat ulushi bor banklar, balki boshqa tijorat banklarining ham erishayotgani bank biznesi uchun mamlakatimizda qulay muhit yaratilganligini ko'rsatadi.



2.5-rasm. Tijorat banklarining regulyativ kapitalining tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati, foizda³⁸


Rasm ma'lumotlari asosida, mamlakatimiz tijorat banklarining regulyativ kapitali yetarlirliligini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu ko'rsatkichni yil sayin o'sib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. 2015-yilda 14,72 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2016-yilda 0,1 foizga oshib 14,73 foizni tashkil qilgan. 2017-yilda esa 18,77 foizni tashkil qilib, 2015-yilga nisbatan 1,3 martaga oshgan. 2018-yil 1-choragida bu ko'rsatkich 19,55 foizni tashkil qildi.

Biz bilamizki, Bazel qo'mitasining talabiga ko'ra, regulyativ kapitalining yetarlirliligi ko'rsatkichiga nisbatan talabi 8 % ni tashkil qiladi. Bizda esa 19,55 % ni tashkil qilmoqda, ya'ni Bazelning talabidan 2,4 marta yuqori, demak bu ijobiy holat.

Shu bilan birgalikda tijorat banklarining birinchi darajali kapitali yetarlirliligini hisoblab, oxirgi yillardagi dinamikasini va Bazel talablari bilan taqqosalak maqsadga muvofiq bo'ladi.

³⁸ www.cbu.uz, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzildi

Chunki hozirgi kunda ko'plab rivojlangan davlatlar ham Bazel tavsiyalarini o'z amaliyotlariga joriy qilishmoqda. Ayniqsa kuzatilga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yuz bergan paytda banklarda yuzaga keladigan risklar muammosining paydo bo'lishi buni ahamiyatini yanada oshirdi.



2.6-rasm. Tijorat banklarining I darajali kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati, foizda³⁹

Rasm ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, tijorat banklarining I darajali kapital yetarlirliligi 2015- yil holatiga 12,55 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yil 12,50 foizni tashkil etib, bazis yilga nisbatan 0,5 foizga kamaygan. 2017-yilda 16,55 foizni tashkil qilib, 2016-yilga nisbatan 4,05 foizga, 2015-yilga nisbatan esa 4,0 foizga yoki 1,3 martaga oshgan. 2016-yilda 0,5 foizga kamayganini salbiy baholab bo'lmaydi. Chunki ushbu yilda bu ko'rsatkich kamaygani bilan Bazel talabidan yuqori bo'lmoqda. 2018-yil 1-choragida esa 17,89 foizni tashkil qilgan. Umuman olganda I darajali kapital yetarlirliligi ham Bazel talablaridan 4 barobardan ortiqni tashkil qilmoqda.

Demak, bank tizimida tijorat banklarining barqaror manbalar hisobidan kapitallashuviga e'tibor qaratilgan deb aytishimiz mumkin. Tijorat banklari I darajali kapital yetarliligining bu darajasi ularning kapitallashuv darajasini yanada oshirish istiqboli mavjud ekanligini belgilaydi.

³⁹ www.cbu.uz, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzildi

Bizga ma'lumki, tijorat banklarining asosiy kapitali regulyativ kapitalning 60 foizdan kam bo'lmasligi va uning yetarliligi 7,5 foiz bo'lishi kerak. Shuning uchun ham asosiy kapital yetarliligini tahlil qilish zarur deb o'ylaymiz. Tahlilda biz 2017-2018-yillarning I choragi ma'lumotlarini tahlil qildik.

2.5-jadval.

Tijorat banklarining I darajali asosiy kapitali yetarliligi, foizda⁴⁰

Nomi	01.04.2017.	01.04.2018.
Asosiy kapital(Mlrd.so'm)	8 365,6	20 572,3
Tavakkalchilikni hisobga olgan aktivlar summasi(Mlrd.so'm)	63 956,7	115 291,4
Asosiy kapital yetarliligi:Asosiy kapital/Tavakkalchilini hisobga olgan aktivlar summasi, %	13,1	17,8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinmoqdaki, Mamlakatimiz tijorat banklarining asosiy kapital yetarlirliligi 2017-yil 1-aprel holatiga ko'ra 13,1 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2018-yil 1- aprel holatiga ko'ra esa 17,8 % ni tashkil etdi. Buni biz ijobiy holat deb baholaymiz, chunki asosiy kapital yetarliligi o'sish tendensiyasiga ega, qolaversa Markaziy bank tomonidan belgilangan me'yor (7,5 %) dan ikki barobarga yuqoridir.


Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda mamlakatimizda tijorat banklari kapitalining yuqori sur'atlar bilan o'sishi jarayoni kechmoqda. Bunday o'sishga nafaqat davlat ulushi bor banklar, balki boshqa tijorat banklarining ham erishayotgani bank biznesi uchun mamlakatimizda qulay muhit yaratilganligini ko'rsatadi.

Har qanday bank tizimining barqarorligini, to'lovga qobilligi va ishonchliligini ta'minlashda, bank aktivlarini o'stirishda bank kapitali muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Faqatgina yetarlirlicha miqdorda barqaror kapitalga ega tijorat banklari aktiv operatsiyalarini erkin amalga oshirishlari, talab etilgan darajada likvidlikni doimo saqlagan holda samarali faoliyat yuritishlari hamda moliya bozorlariga erkin chiqish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

⁴⁰ www.cbu.uz, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi


Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tijorat banklari kapitali samaradorligini va uning muvofiqligini ta'minlamasdan turib, banklarning to'lov qobiliyatini mustahkamlash, aholi va investorlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini qozonish mushkul vazifalardan biri hisoblanadi.

Fikrimiz isboti sifatida AT "Aloqabank"ning kapitallashuv darajasini tahlil qilib ko'ramiz.



2.7-rasm. AT Aloqabankning regulyativ kapitali yetarliligi⁴¹

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ushbu bankning regulyativ kapitali yetarliligi o'sish tendensiyasiga ega. 2016-yilda 14,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2017-yilda 16,8 foiz bo'lib, o'tgan yilga nisbatan kapital yetarliligi 1,1 martaga oshgan. Qolaversa Markaziy bank belgilagan ko'rsatkichdan 4,3 foizga yuqori, xalqaro me'yordan esa 2 barobardan ortiqqligini ko'rishimiz mumkin. Bunday o'zgarish, albatta ushbu bank uchun ijobiy holatdir.



2.8-rasm. AT Aloqabankning I darajali kapitali yetarliligi⁴²


⁴¹ AT "Aloqabank" ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Rasm ma'lumotlariga qarab aytishimiz mumkinki, 2016-yilda I darajali kapital yetarliligi 13,15% bo'lib, belgilangan me'yordan (13,15-9,5) 3,65 foizga yuqori bo'lmoqda. 2017-yilda 15,88% bo'lib, me'yordan (15,88-9,5) 6,38 foizga yuqoridir. O'sish tendensiyasi esa 2016-yilga nisbatan (15,88-13,15) 2,33 foizga yoki 1,2 barobarga oshgan. AT "Aloqabank" ning kapitallashuv darajasiga umumiy tavsif beradigan bo'lsak, bank kapitallashuvi yil sayin ortib bormoqda va asosan sof hisobidan shakllanmoqda.

Respublikamizda tijorat banklari kapitallashuvining oshib borishida, eng avvalo, ularning ustav kapitali minimal miqdoriga bo'lgan talabning bosqichma-bosqich oshirib borilayotganligi sabab bo'layapti.

Yuqoridagi ma'lumotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklari kapitallashuv jarayonlarini yuksaltirish uchun, albatta birinchi navbatda ulrning aksiyalari jozibadorligini oshirish, shuningdek, faoliyat samaradorligini , daromadliligini orttirish, olingan sof daromadlarning bir qismini doimiy ravishda bank kapitalini ko'paytirishga qaratishlari masadga muvofiqdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tijorat banklari uchun leveraj koeffitsientini tahlil qilish va belgilangan me'yorda saqlash bank aktivlaring kapital bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.



2.9-rasm. AT Aloqabankning aktivlarini kapital bilan ta'minlanganlik darajasi, foizda⁴³

⁴² AT "Aloqabank" ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

⁴³ AT "Aloqabank" ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi


Tijorat banklarining leveraj koeffitsienti xalqaro me'yori 6 foiz qilib belgilangan. Bu me'yor mamlakatimiz banklari uchun ham o'zgarmagan. Yuqoridagi rasmga e'tibor beradigan bo'lsak, Aloqabankning leveraj koeffitsienti 2016-yilda 10,6 foiz bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda 11,5 foizni tashkil qilib 0,9 foizga o'sgan. Shuningdek belgilangan me'yordan qarib ikki martaga ko'pdir. Xulosa qilib aytganda, AT Aloqabankning kapitallashuv darajasi ko'rsatkichlarinining o'sish tendensiyasiga egaligini inobatga olib, bankning kapitallashuvini ijobiy deb baholashimiz mumkin.

2.3 Banklarning kapitallashuv darajasiga ta'sir etuvchi omillar

Tijorat banklarining jamiyat miqyosidagi vaqtinchalik bo'sh mablag'larni jalb qilish kabi asosiy vazifasini e'tiborga olsak, ushbu masalaning naqadar muhim ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Tijorat banklari kapitalini boshqarish ko'p qirrali jarayon bo'lib, ushbu jarayonda asosiy e'tibor kapitalning tarkibiga qaratiladi. Chunki bank kapitalini boshqarishning asosiy jihatlaridan biri bo'lib, bank kapitalining tarkibi hisoblanadi.

Bank kapitalini boshqarishning ob'ektlaridan kelib chiqqan holda uning bank faoliyatiga ta'sirini ko'rib chiqish uchun quyidagi rasmdan foydalanamiz.



2.10-rasm. Tijorat banklarining kapitalini boshqarishni amalga oshirishning asosiy obyektlari⁴⁴.

Rasmda bank kapitalini boshqarishning obyektiv asoslari keltirilgan. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, tijorat banklarining kapitalini barqaror darajasini ta'minlash bank kapitalini boshqarishning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi.

⁴⁴ A. Omonov "Bank kapitalini samarali boshqarish" T.: 2005 y.

Bunda asosiy e'tibor tijorat banklarining kapitalini shakllantirishning barqaror manbalariga qaratiladi. Tijorat banklari kapitali tarkibida barqaror manbalar sifatida ularning ustav kapitali va o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasini keltirish mumkin. Chunki ustav kapitali tijorat banklarining faoliyatini dastlabki davridayoq shakllantirilib bank faoliyati tugatilgunga qadar hisobda turadi. Shu bilan birga, ushbu mablag' real moliyaviy mablag'lar hisobidan shakllantiriladi. Xalqaro bank amaliyotida ustav kapitali asosiy va barqaror element hisoblanadi. Respublikamiz banklarida ham ustav kapitaliga nisbatan ana shunday sifat beriladi.

Tijorat banklari o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi ham real qiymatga ega bo'lgan mablag'lar hisobidan shakllantirilib bank aksiyadorlari yig'ilishining qarori asosida ma'lum maqsadlarga yo'naltirilishi mumkin.


Tijorat banklarining kapitalini boshqarishning ikkinchi asosiy jihati sifatida ularning jami kapitalining yetarlirliligini ta'minlash masalasi hisoblanadi. Jami kapitalning yetarlirliligini ta'minlash tijorat banklarining faoliyatini normal ravishda harakat qilishga imkon berish bilan birga, ularning moliyaviy mustahkamligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Banklarning asosiy kapitalining yetarlirliligini ta'minlash orqali bank kapitalini boshqarish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Uning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bank faoliyatining samaradorlik darajasini past yoki yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Chunki, tijorat banklari ma'lum darajadagi risk asosida bank kapitalidan kredit resurslari sifatida foydalanishi ham mumkin. Kredit resursi sifatida berilgan kapital qarzдорlar tomonidan samarali foydalanishi natijasida daromad keltirsa bankning moliyaviy jihatdan baqquvvat bo'lishiga xizmat qiladi. Agar ushbu holatning aksi bo'lsa banklar moliyaviy jihatdan ikki tomonlama ko'radilar.

Ya'ni, birinchidan, berilgan kreditlar o'z vaqtida qaytarilmaydi va ushbu kreditdan mo'ljaldagi foizli daromadlarni ololmaydi. Ikkinchidan, kredit resurslarining belgilangan muddatda qaytmasligi bankni moliyaviy jihatdan zaif

qilib qo'yadi. Demak, ushbu jarayonda kredit riskini oqilona baholash orqali bank kapitalini boshqarishdagi muhim masalalardan biri hisoblandi.

Tijorat banklari kapitalini boshqarishning ob'ektiv asoslaridan kelib chiqqan holda, unga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni quyidagi chizmada keltirilgan tartibda guruhlab tahlil qilish maqsadga muvofiq.



2.11-rasm. Tijorat banklarining kapitalini boshqarishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar⁴⁵.

Rasmning chap ustunidagi guruhga mansub omilning bir necha jihatlari mavjud bo'lib ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

a) Tijorat banklarining oddiy va imtiyozli aksiyalarining bozor bahosini o'zgarish omili.

Tijorat banklarining oddiy va imtiyozli aksiyalarining bozor bahosining o'sishi ularni sotish jarayonini tezlashtiradi va sotilish koeffitsientining yuqori darajasiga erishish imkoniyatini beradi, buning natijasida ustav kapitalining haqiqatda to'langan qismi oshadi Aksincha, bankning oddiy va imtiyozli aksiyalarining bozor bahosini pasayishi ularni sotishdan olinadigan tushumlari

⁴⁵ A. Omonov "Bank kapitalini boshqarish" T.: 2005 y.

miqdoriga va emissiyaviy daromadlari hajmiga salbiy ta'sir qiladi.

Shunisi xarakterliki, ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlarda moliya bozorining rivojlanmaganligi oqibatida oddiy va imtiyozli aksiyalarning bozor bahosini aniqlash imkoniyati mavjud emas. Buning ustiga, banklarning moliyaviy barqarorligi va to'lovga qobilligi to'g'risida ishonchli ma'lumotlarning mavjud emasligi investorlarda qimmatli qog'ozlarni sotib olishga bo'lgan ishonchni pasayishiga sabab bo'ladi.

Rivojlanayotgan davlatlarda inflatsiya darajasining yuqori ekanligi bank aksiyalarining bozor bahosiga salbiy ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Inflyatsiyaning yuqori darajasi investorlar tomonidan bank aksiyalarini sotib olishga qilingan qo'yilmalarning va ulardan olinadigan daromadlarning real qiymatini pasayishiga olib keladi.

Tijorat banklari moliyaviy ahvolining nobarqarorligi bankning operatsion foydasi va sof foydasining miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Operatsion foydaning yetarlicha darajada shakllanmasligi imtiyozli aksiyalarga to'lanadigan foizlarni o'z vaqtida va to'liq to'lanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sof foydaning yetarlicha darajada shakllanmasligi esa oddiy aksiyalarga to'lanadigan dividendlarning miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aksiyalarning bozor bahosini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan yana biri milliy valuta kursining xorijiy valutaga nisbatan sezilarli darajada tebranishidir. Bunga misol qilib 1998-yilda Rossiya rublining almashuv kursining keskin pasayib ketganligini, 2001-yil fevralda turk lirasi kursining AQSH dollariga nisbatan keskin tushib ketganligini keltirish mumkin. Buning natijasida mazkur mamlakatlarda milliy valutada yozilgan qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan qo'yilmalar va ularning hisobidan olinadigan daromadlari keskin pasayib ketdi.

b) Aksiyadorlarning ustav kapitalini shakllantirish bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish omili.

Bizga ma'lumki, aksiyadorlik tijorat banklarining ustav kapitali ikki qismdan iborat bo'ladi: 1) ustav kapitalining e'lon qilingan qismi; 2) ustav kapitalining haqiqatda to'langan qismi.

Aksiyadorlarning ma'lum qismi ayrim hollarda o'zlarining ustav kapitalini shakllantirish yuzasidan olgan majburiyatlarini bajarishdan bosh tortadilar yoki bajarish muddatini juda cho'zib yuboradi. Buning natijasida ustav kapitalini shakllanishiga nisbatan salbiy ta'sir yuzaga keladi. Bu o'z navbatida, uni boshqarish jarayonining samaradorligini pasaytiradi. G'arbiy Yevropadagi ayrim mamlakatlarning banklarida to'lanmagan ustav kapitali resurs sifatida hisobotlarda aks ettiriladi. Chunki amaldagi mahalliy qonunlarga muvofiq aksiyadorlarning bank oldidagi majburiyati yuridik kuchga ega deb hisoblanadi. Bu holat bozor iqtisodiyotining talablariga unchalik mos kelmaydi. Buning sababi shundaki, bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyadorlar moliyaviy ahvoli yomonlashib borayotgan bankning ustav kapitaliga qo'yilmalar qilishdan qonuniy asosda bosh tortish huquqiga ega bo'lishi lozim.

Tijorat banklari jami kapitalining yetarlirliligini ta'minlashga ta'sir qiluvchi omil guruhiga quyidagi omillar kiradi.

a) Tijorat banklari kapitalining oqilona tarkibini shakllantirish va uning yetarlirliligiga nisbatan qo'yiladigan minimal talabning mo'tadil darajasini aniqlash omili

Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqarilgan tijorat banklari kapitalining yetarlirliligiga nisbatan qo'yiladigan talablar dunyoning yuzdan ortiq mamlakatida qo'llanilayotgan bo'lsada, bank kapitalini tarkibi va uning yetarliligiga qo'yilgan minimal talab darajasi ko'pchilik mamlakatlarda bir-biridan farq qiladi. Masalan, xalqaro Bazel andozalari bo'yicha jami kapitalga qo'yilgan minimal talab 8 foizni tashkil qilsa, Markaziy bank tomonidan respublika tijorat banklar jami kapitaliga belgilangan minimal talab darajasi 12,5 foizni tashkil qiladi. Shuningdek, tijorat banklarining asosiy kapitaliga nisbatan belgilangan minimal talab o'rtasida sezilarsiz darajada farq mavjud.

Tijorat banklari kapitali hisobidan olinayotgan daromad miqdorini aniqlashda bir so'mlik kapitalga to'g'ri keladigan daromad miqdori ko'rsatkichidan keng ko'lamda foydalaniladi. Ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

BYAD

$$1) JKFS = \frac{\text{BYAD}}{\text{BJK}} \times 100 \% \quad (2)$$

BJK

Bu yerda: JKFS -jami kapitaldan foydalanish samaradorligi

BYAD-bankning yalpi daromadi

BJK -bankning jami kapitali

Ushbu ko'rsatkich har bir so'mlik jami kapitaliga to'g'ri keladigan yalpi daromad miqdorini ko'rsatadi. Uni baholash uchun moliyaviy tahlilning qiyosiy tahlil usulidan foydalanamiz. Fikrimizcha, tijorat banklari daromadlarini tahlil qilishda choraklik davriy oraliqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu qoida tijorat banki daromadlari va xarajatlarini o'sib boruvchi yakun tarzida aks ettirilishi bilan izohlanadi.

Bank kapitalining daromadlilik darajasini aniqlash bank kapitalidan foydalanish samaradorligini belgilovchi bilvosita ko'rsatkich hisoblanadi. Chunki, birinchidan, bank kapitali hisobidan aynan qaysi aktiv operatsiya moliyalashtirilayotganligini bilishning iloji yo'q; Ikkinchidan, bank kapitali bankning jami resurslariga nisbatan kichik salmoqni egallaydi.

Daromadlilik koeffitsientini pasayishi kapitaldan samarali foydalanish darajasining pasayayotganligidan dalolat beradi.

b) Bank ustav kapitalining jami kapital hajmidagi salmog'ining o'zgarishi.

Bunda ustav kapitalidan ko'zda tutilmagan xarajatlar va zararlarni qoplash imkoniyati nazarda tutiladi. Bankning ustav kapitali o'ziga xos sug'urta fondi sifatida operatsion faoliyat davomida yuzaga keladigan ko'zda tutilmagan xarajatlar va zararlarni qoplash uchun yetishi kerak.

Ayni vaqtda, shuni ta'kidlash lozimki, depozitlarni sug'urtalash tizimini joriy qilinishi kutilgan natijani bermasligi ham mumkin. Buning sababi shundaki, ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlarda tijorat banklarining sezilarli qismi moliyaviy jihatdan nochor hisoblanadi. Natijada. ular tomonidan sug'urta fondiga yirik miqdorda ajratmalar qilinishi ushbu banklarning moliyaviy ahvolini yanada og'irlashtiradi. Jahon bankining eksperti Maykl Fuks rahbarligidagi ekspertlar

guruhining fikriga ko'ra, depozitlarni sug'urtalash tizimining joriy etilishi milliy bank tizimiga bo'lgan ishonchni yanada yo'qotilishiga xizmat qilishi mumkin. Ularning fikriga ko'ra, agar sug'urta fondi depozitlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshira olmasa, u holda mijozlarning sug'urta fondiga va ular orqali bank tizimiga bo'lgan ishonchiga putur yetadi. Shuning uchun, depozitlarni sug'urtalash fondining majburiyatlari cheklangan bo'lishi va fond kapitalining yetarlirlilik darajasi kafolatlangan bo'lishi lozim.

Shunisi e'tiborga molikki, bank kapitalining moddalari barqarorligi va daromadliligi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Masalan, uzoq muddatli subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari yuqori xarajatli kapital moddasi hisoblanadi. Chunki ularga to'lanadigan foiz stavkalari oddiy va imtiyozli aksiyalarga to'lanadigan foiz stavkalariga nisbatan sezilarli darajada yuqoridir. Shuning uchun ulardan foydalanish natijasida olinadigan foydaning real darajasi kichik bo'ladi.

Fikrimizcha, tijorat banklari kapitalini boshqarishga ta'sir qiluvchi omillar kapitalning asosiy sifat ko'rsatkichlarini o'zgarshirishga qodir bo'lgan omillar hisoblanadi. Ularning bank kapitalini boshqarish jarayoniga ta'sir etish mexanizmini chuqur o'rganish va salbiy ta'siriga barham berish choralarini ishlab chiqish bank kapitalini boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

II bob bo'yicha xulosa.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, tijorat banklarining kapitali tarkibi, uning dinamikasi va yetarlilik ko'rsatkichlari yuqori o'sish darajasiga ega. Xususan AT Aloqabank, TIF Milliy bankning kapitallashuv darajasini tahlil qilib qilib bildikki, kapital tarkibida ustav kapitalining ulushi va foyda darajasining yuqori bo'lganligi yil sayin o'sish tendensiyasiga ega bo'lishini ta'minlagan. Bu esa bankning kapital yetarliligini xalqaro me'yordan ham yuqori bo'lishiga olib keldi deb o'ylaymiz.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, bank kapitalini oshirishda banklar asosan foyda va aksiyalar chiqarib muntazam oshirib borishgan. Lekin e'tiborga

molik tomoni shundaki, banklarning imtiyozli aksiyalarining bozor bahosi o'zgarishsiz qolgan. Bu ijobiy holat deb baholadik. Chunki birinchi darajali kapital tarkibiga barqarorlik nuqtai nazaridan asosan oddiy aksiyalar kiradi. Shuning uchun banklar kapitalini muntazam oshirib borish va unda oddiy aksiyalarga e'tibor qaratish, o'ylaymizki, banklar kapitali sifat jihatdan tobora mustahkamlanib boraveradi.

Lekin bank kapitalini oshirishda faqat aksiyalarga emas, balki bank daromadini oshirishga ham e'tibor qaratish lozim deb o'ylaymiz. Chunki mamlakatimizda moliya bozori yaxshi rivojlanmaganli uchun banklarning aksiyalariga bo'lgan bir muncha ozdir. Shuning uchun banklar ko'proq aktiv operatsiyalari orqali daromadini oshirishga va bu sof foydani o'sishiga olib keladi.

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, tahlil natijalarini yanada chuqurroq o'rganish va ta'sir etuvchi omillarni hisobga olsak, o'ylaymizki banklarning kapitallashuv darajasi yanada oshadi.

III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING KAPITAL YETARLILIGINI TA'MINLASH VA UNI OSHIRISH

3.1 Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar

Bugungi kunda, mamlakatimiz tijorat banklari oldida bir qancha muammoli va muhokamali holatlar mavjud. Tijorat banklarining kapital bazasini mustahkamlash bo'yicha banklar tomonidan bir qancha amaliy ishlar olib borilmoqda. Buning natijasida bankning barqaror faoliyat olib borish imkonini beruvchi samarali resurs bazasini shakllantirish muhim hisoblanadi. Bilamizki, banklarning kapitalini oshirish hamda ularning barqaror faoliyat yuritishi uchun barqaror resur bazasiga ega bo'lishi va uni tashkil qilishi, banklar yetarlicha erkin faoliyat olib borishi uchun qulayliklar va mustaqillik darajasini ta'minlab berish kerak deb o'ylaymiz.

Amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarimiz bank kapitali tarkibini oqilona shakllantirish va uning yetarliligini ta'minlash borasida quyidagi muammo va kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni keltirib o'tamiz:

1. Tijorat banklari jami kapitali tarkibida qo'shimcha kapital salmog'ining juda kichikligi.

Ushbu muammoning mohiyati shundaki, respublikamiz tijorat banklari jami kapitalining mutlaq asosiy qismi asosiy kapitaldan iborat. Tijorat banklari jami kapitalining o'rtacha 95 foizi asosiy kapital hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2. Tijorat banklari kapitali tarkibida aniqlikning yetishmasligi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2015-yil 6-iyulda tasdiqlangan 2693-sonli "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomga muvofiq "kapital zaxiralar" tushunchasi taqsimlanmagan foyda tarkibiga kiritilgan. Vaholanki, xorij amaliyotida (asosan rivojlanayotgan davlatlarda) bank ustav kapitali miqdorida tashkil etiladigan kapital zaxiralar taqsimlanmagan foyda tarkibida bo'lmaydi. Respublikamiz tijorat banklari hisobvaraqlar rejasida ham kapital zaxiralarni taqsimlanmagan foyda tarkibiga kiritilmagan. Kapital zaxira

mohiyatiga ko'ra ustav kapitalini oshirishni ta'minlovchi manba sanaladi. Kapital zaxiralarni nizomda taqsimlanmagan foyda tarkibidan chiqarib, alohida qayd etish va aynan qaysi manbalar kapital zaxira sifatida qaralishi aniqlashtirilsa fikrimizcha, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Tijorat banklari kapital yetarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga muvofiq ustav kapitalining valuta qismini qayta baholash hisobiga yaratilgan devalvatsiya zaxirasi I darajali kapital tarkibiga kiritilgan. Biroq, II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarzlar talablari sifatida devalvatsiya zaxirasini yana bir bor uchratishimiz mumkin. Bu holatga ham oydinlik kiritilishi lozim deb hisoblaymiz.

3. Tijorat banklari aktivlarining risklilik darajasi pastligi va buning natijasida bank aktivlarining daromadlilik darajasining pastligi.

Bunga sabab ko'pgina tijorat banklarimizning filial tarmog'ining kengligi va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarining rivojlanmaganligi katta miqdorda banklarda kassa aktivlarining to'planib qolishiga olib kelmoqda. Shuningdek, amaliyotda ham yuqori riskli va daromadli aktivlar hali mavjud emas. Tijorat banklarining qimmatli-qog'ozlar, qimmatbaho metallar bilan muddatli va naqd bitimlar tuzish, hosilaviy instrumentlardan foydalanish keng rivojlanmagan. Qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi qilish kamida bir kunni talab etadi. Xorij amaliyotida esa likvid qimmatli qog'ozlar savdosi yarim soatlik jarayon hisoblanadi.

4. Bank aktivlarini tasniflashning samarali tizimi mavjud emasligi.

Amaliyotimizda tijorat banklarimiz qonunchilikka muvofiq faqat kreditlarni tasniflash va ularga ehtimoliy yo'qotishlar uchun maxsus zaxirani shakllantirishlari belgilangan. Maxsus zaxira bank xarajatlari hisobidan shakllantirilib, ularning hisobi kontraktiv hisobvaraqlarda yuritiladi. Tijorat banklarida muddati o'tgan ssudalarni yashirish imkoniyati mavjudligi banklarga kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun maxsus zaxirani shakllantirish xarajatlarini kamaytirish orqali bank sof foydasini asossiz oshirish va yuqori kapital yetarliligiga ega bo'lish imkonini beradi. Shuningdek tijorat banklari tomonidan boshqa aktivlarni

(investitsiya, qimmatli-qogʻozlar va boshqalar) tasniflanmasligi va ular boʻyicha majburiy ravishda ehtimoliy yoʻqotishlar uchun zaxiralar shakllantirilmasligi bank aktivlari tarkibida sifatsiz aktivlarning yashirinishiga, bank tomonidan zararli va foydasiz aktivlarni oʻz vaqtida hisobdan chiqarilmasligiga hamda bank moliyaviy ahvolini notoʻgʻri baholanishiga sabab boʻladi.

Xorij amaliyotida balansdan tashqari aktivlar uchun qayta baholash hamda ehtimoliy yoʻqotishlar zaxirasini shakllantirilishini koʻrish mumkin. Ular II darajali kapitalning elementlari sanaladi. Respublikamiz tijorat banklari balansdan tashqari aktivlarida zaxiralar shakllantirilmaydi va moliyaviy hisobotlar chop etilganda balansdan tashqari moddalar koʻrsatilmaydi. Bu ham bank balansdan tashqari aktivlarining notoʻgʻri tasniflanishiga sabab boʻladi.

5. Tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirish va uning minimal darajasiga nisbatan qoʻyiladigan talablar xususida yagona yondoshuvning mavjud emasligi.

6. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) amal qilmaganligi uchun bu birlashgan korxonalarga qilingan investitsiyalarni kapital hisobida aks ettirib boʻlmayotganligi.

7. Tijorat banklari kapitali tarkibida olingan emission daromadlar deyarli sezilmaydigan darajada. Bu holat banklarimiz aksiyalari qimmatbaho qogʻozlar bozorida deyarli nominal bahosi miqdorida sotiladi. Ularning bozor (real) bahosiga taʼsir etuvchi omillar yoʻqligicha qolmoqda.

8. Bank daromdlarining asosiy qismini foizlardan olingan daromadlar va vositachilik haqlari tashkil etmoqda. Aslini olganda foizli daromadlar va vositachilik haqlaridan olinadigan daromadlar qancha koʻp boʻlsa shuncha yaxshi, lekin muammo shundan iboratki banklarimizning boshqa operatsiyalaridan oladigan daromdlari salmogʻi juda past darajadagicha qolmoqda.

9. Bugungi kungacha Respublikamiz tijorat banklarining aktiv operatsiyalari tarkibida qimmatbaho qogʻozlar bilan amalga oshiriladigan fond operatsiyalar ulushi deyarli ozligicha qolmoqda. Buning oqibatida bank daromdlari tarkibida

ham fond operatsiyalaridan olinadigan daromadlar ham deyarli yoʻqligicha qolmoqda.

Bizga maʼlumki rivojlangan mamlakatlar tijorat banklari fond bozorining aktiv ishtirokchilari hisoblanadi va ularning aktivining asosan 30-35 foizini fond bozorida xarid etilgan qimmatbaho qogʻozlar tashkil etadi. Chunki ular xarid qilingan davlatning va boshqa likvid hisoblangan korporativ qimmatbaho qogʻozlardan dividend tariqasida daromad olinadi va bu daromadning miqdori jami daromadlarida salmoqli oʻrinni egallaydi.

10. Tijorat banklari tomonidan chiqariladigan aksiyalarni joylashtirish bilan bogʻliq muammolar.

Banklar tomonidan taklif etilayotgan dividendlarning oʻrtacha yillik stavkasi banklardagi depozit stavkalari bilan deyarli bir xil, bundan tashqari ular oʻzgaruvchan boʻlib, bank faoliyati bilan bogʻliq muammolar natijasida dividendlar miqdori kamayib ketishi mumkin.

11. Taqsimlanmagan foyda salmogʻini oshirish borasida aksiyadorlar oʻrtasida manfaatlar kelishmovchiligining yuzaga kelishi.

Bank kapitalini oshirishning yana bir yoʻli yil davomida olingan sof foydani dividendlarga yoʻnaltirmasdan ularni taqsimlanmagan foyda sifatida qoldirishdir. Bank aksiyadorlarining kiritgan investitsiyalaridan bir yil davomida daromad olmasliklari ular va bank boshqaruvi oʻrtasida kelishmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab boʻlilishi mumkin.

12. Iqtisodiy retsessiya sharoitida sof foydani oshirish imkoniyatining cheklanishi.

Iqtisodiyotdagi tebranishlar banklar faoliyatiga ham oʻz taʼsirini oʻtkazmay qoʻymaydi. Chunki bank xizmat koʻrsatadigan mijozlar faoliyatidagi muammolar bankka ikki tomonlama zarar etkazishi mumkin:

- mijozlar hisobraqamlariga pul mablagʻlarini oʻz vaqtida kelib tushmasligi, resurs bazasini shakllantirish bilan bogʻliq muammoni, bu esa oʻz navbatida likvidlik riskini keltirib chiqaradi (oxirgi moliyaviy inqiroz paytida koʻpgina yirik xorij banklari ushbu muammoga duch kelishgan);

- mijozlarga ajratilgan kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligi natijasida muammoli kreditlar va ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zahiralarining miqdori oshib ketadi.

Ushbu ikkala ta'sir ham bank xarajatlarining oshishiga va sof foydasining kamayishiga sabab bo'ladi, ya'ni:

- likvidlikni qimmat manbalar hisobidan ta'minlashga to'g'ri keladi;

- ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zahiralar bank xarajatlari hisobiga tashkil etiladi. Shuningdek, tashkil etilgan zahiralar miqdoridagi mablag'lar Markaziy bankning maxsus hisobraqamlariga deponentlanishi likvid aktivlar miqdorini yanada kamaytiradi.

13. Sudda ko'rib chiqilayotgan va belgilangan tartibda undirilmagan aktivlarga o'ta yuqori (150%) tavakkalchilik darajasi qo'llanilishi bilan bog'liq muammolar.

Sud jarayonidagi aktivlarga 150 foiz tavakkalchilik darajasi qo'llanilsa, riskka tortilgan aktivlarning umumiy summasi sezilarli ravishda oshadi, bu esa, kapital yetarliligi ko'rsatkichini tushirib yuboradi.

Bundan tashqari sud jarayonidagi aktivlarni hisobini yuritish bo'yicha aniq tartib mavjud emas.

14. Yangi likvidlilik talablarini joriy etish hisobiga daromadlilikning pasayishi.

2015-yil 1-yanvardan boshlab joriy likvidlik koeffitsientining minimal darajasi 100 foiz etib belgilandi. Bu me'yoriy talabni bajarish uchun banklar kamida talab qilib olinguncha va qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan majburiyatlar miqdorida yuqori likvidli aktivlarga ega bo'lishlari lozim bo'ladi. Shuningdek, lahzalik likvidlik koeffitsienti ham 2017-yildan joriy etilib, 20 foiz qilib belgilandi. Bu esa, o'z navbatida, banklar aktivlarining ko'p miqdorini likvid aktivlarga yo'naltirishga majbur qiladi va ulardan daromad olish imkoniyatini cheklab qo'yadi.

15. Inflyatsiya darajasining yuqori ekanligi bank aksiyalarining bozor bahosiga salbiy ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Inflyatsiyaning

yuqori darajasi investorlar tomonidan bank aksiyalarini sotib olishga qilingan qo'yilmalarning va ulardan olinadigan daromadlarning real qiymatini pasayishiga olib keladi

16. Kapitalni oshirishga haddan ortiq talabning ko'payishi. Chet ellik iqtisodchi olimlar Besanko va Kanatas hamda Boot va Greenbaum fikriga ko'ra, kapitalga bo'lgan talab rag'batlantirish jarayonini sustlashtiradi, bu esa bank portfeli sifatini tushiradi⁴⁶. Berger va Mester kabi olimlar ham Besanko va Kanatas hamda Boot va Greenbaum fikrlarini inkor etmagan holda, banklar kapitalga bo'lgan talabi tufayli samarasiz va nobarqaror holatga tushib qoladi⁴⁷ deb hisoblaydilar. Hakenes va Schnabel singari olimlar esa bunga boshqa tomondan yondashgan holda, kapitalga qo'yilgan qattiq talablar individual kreditlar riskini oshiradi va bank defolti ehtimolini oshiradi⁴⁸ deb hisoblaydilar. Chunki bu talablar kredit bo'yicha raqobatni kuchsizlantiradi va shu orqali bank sektorini nobarqarorlashuviga olib keladi.

Yuqorida biz sanab o'tgan muammolarni hal etish, har qanday bank uchun juda muhim vazifalardan sanaladi. O'ylaymizki, ushbu muammolarning bartaraf etilishi, mamlakatimiz bank tizimida juda katta ijobiy o'zgarishlar paydo bo'lishiga olib keladi.

3.2 Tijorat banklarining kapitali yetarliligini oshirish bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkich bank kapitalining yetarliligi va uni barqaror manbalar hisobidan shakllantirilganligidir.

Risk bilan bank kapitalining yetarliligini hisoblash o'rtasida aloqalar mustahkamlanishi hamda Bazal qo'mitasining kapital tarkibi bo'yicha yangi talablari 100 dan ortiq davlatlarda qo'llanilishi jahon bank tizimini mutanosibligi

⁴⁶ www. Sciencedirect.com Jacob Oduor, Kethi Ngoka, Maureen Odongo "Kapital requirement, bank competition and stability in Africa" Review of Development Finance 7 (2017) p.46

⁴⁷ www. Sciencedirect.com Jacob Oduor, Kethi Ngoka, Maureen Odongo "Kapital requirement, bank competition and stability in Africa" Review of Development Finance 7 (2017) p.46

⁴⁸ www. Sciencedirect.com Jacob Oduor, Kethi Ngoka, Maureen Odongo "Kapital requirement, bank competition and stability in Africa" Review of Development Finance 7 (2017) p.46

va ishonchliligini mustahkamlashga, xalqaro operatsiyalarni amalga oshiruvchi banklar o'rtasida raqobatning tengligini ta'minlashda hamda nazoratni kelishuv asosida amalga oshirilishiga katta yordam berdi.

Bank nazoratiga kapitalning yetarliligi me'yorlari orqali kredit tashkilotlarini ishonchliligini aniqlash amaliyotini tatbiq etish jahon bank tizimida ma'lum bir natijalarni berdi: o'tgan o'n yil ichida rivojlangan davlatlar kredit tashkilotlarining kapital yetarliligi o'rtacha ko'rsatkichi 9,3 foizdan 13,2 foizga oshdi.

Albatta, Xalqaro Bazel Qo'mitasi tomonidan bank kapitali yetarliligini hisoblash bo'yicha ishlab chiqilgan standartlar jahon bank amaliyotida olamshumul voqealikka sabab bo'ldi, shu bilan birga ushbu standartlar ayrim kamchiliklardan holi emasligi amaliyotda ifodasini topdi. Ushbu kamchiliklar birinchi bor AQSH, so'ngra Rossiya olimlari tomonidan keng e'tirof etildi. Bular quyidagilardan iborat edi:

- barcha mamlakatlar uchun yagona kredit riskini o'rnatilganligi;
- bank faoliyatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan bozor va foiz xatarlarini inobatga olinmaganligi;
- rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning banklari uchun yagona yondoshuvning joriy etilganligi shular jumlasidandir.

Birinchi navbatda, xususiy kapitalni o'stirishning xorij tajribasini o'rgangan holda uni o'zimizning, O'zbekiston sharoitida qay darajada qo'llash imkoniyatlarini aniqlash yotadi.

Agar bir eslasak, soliq solingandan keyingi foyda hisobiga shakllanuvchi kapital zahiralar, xorij banklari xususiy kapitali tarkibidagi eng asosiy komponent hisoblanadi, demak kapitalizatsiya bo'yicha banklar tomonidan ushbu usulni qo'llash eng maqbul yo'l hisoblanadi. Chunki oxir oqibat, xususiy kapital bank egalariga, ya'ni aksionerlarga tegishlidir. Eng asosiy ish qoladi, ya'ni foyda olish va uni ko'paytirish.

Xususiy kapitalni yaqin yillarda, istiqbolli rivojlanishini ta'minlash uchun bank operativ tarzda yangi iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashishi,

yangi zamon talab etadigan masalalariga maksimal darajada samarali javob berishi kerak.

1. Yuqoridagi keltirilgan tahlilga ko'ra shu narsa aniqlandiki, tijorat banklari xususiy mablag'lari tarkibidagi, xorij banklari tomonidan keng qo'llaniladigan subordinar qarzdek instrument kam darajada vaznga ega yoki yo'q, yoki kapitalda emas balki majburiyatda ko'riladi. Shunday turdagi manba ustunliklari ayondir, uning kamchiligi shundaki, bunday manba doimiy emasligida, shuning uchun u 2-darajali kapital tarkibiga kiritiladi. Qonuniy tartibda subordinar qarz kapital elementi sifatida hisobga olingan, ammo amaliyotda kamdan kam va cheklangan holda ishlatiladi. Subordinar qarzlarning ishlatilishi kapital o'sishining yangi imkloniyatlarini ochgan bo'lardi.

2. Bank o'z faoliyatini olib borishi uchun ba'zan o'zida mavjud binolarni sotish va uni keyin yangi egalardan arendaga olish talab etiladi. Bu pul mablag'larini qo'shimcha oqimini ta'minlab beradi, shuningdek, xususiy kapital ko'payishiga olib keladi, bu bank kapital holatini kuchaytiradi.

3. Tashqi kapitalni jalb etish usulini tanlash aksionerlar daromadiga potensial ta'sir etuvchi maqbul yo'llar tahlili asosida amalga oshirilishi kerak.

3.1-jadval

Tashqi manbalar hisobiga bank kapitalini olib kirish, (mln. so'mda)⁴⁹

Ko'rsatkichlar	Variantlar		
	1	2	3
1. Prognozashtirilgan daromadlar	2000	2000	2000
2. Prognozashtirilgan xarajat	1800	1800	1800
3. Sof daromad	200	200	200
4. Kapital qarz majburiyatlari bo'yicha foizli to'lovlar	0	0	12
5. Soliq solishdan oldingi prognozashtirilayotgan foyda	200	200	188
6. Foydaga solingan soliqning hisob-kitob summasi (15%stavka)	30	30	28,2
7. Soliq solingandan keyingi hisoblangan sof foyda	170	170	159,8
8. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar	0	100	0
9. Oddiy aksiya egalarida qolgan sof foyda	170	70	159,8
10. Oddiy aksiya hisobiga foyda	34	17,5	39,95
11. Ja'mi oddiy aksiyalar, mln. dona.	5	4	4

⁴⁹ Лаврушин О.И., Управление деятельностью коммерческого банка (Банковский менеджмент).-М.: Юрист, 2009.

Chunki bank faoliyatining har qanday ahvoli (yaxshi yoki yomon) aksionerlar uchun birlamchi masala hisoblanadi. Shuningdek ular oladigan dividend ko'rinishidagi daromadlari ham shunga to'g'ri proporsionaldir.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan hisoblarni tahlil qilsak, bank muomalada qiymati 100 so'mlik bo'lgan 4 mln ta oddiy aksiyalarga ega, va tashqi manbalar hisobiga 100 mln so'mlik kapital olishga muhtoj. Menejerlar 3 ta variantdan birini tanlashi kerak :

- 1) Nominali 100 so'mlik bo'lgan yana 1 mln. ta oddiy aksiya chiqarish;
- 2) Umumiy summasi 100 mln.so'm bo'lgan yillik 10% daromad keltiradigan imtiyozli aksiyalar chiqarish;
- 3) 100 mln. so'mlik yillik 12% kupon stavka bilan kapital qarz majburiyatlarini chiqarish ;

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, uchta keltirilgan variantlardan eng maqbuli, bu kapital qarz majburiyatlarini chiqarish hisoblanadi. Ushbu holatda oddiy aksiyalardan daromad maksimallasadi.

Bu maqsadga erishish uchun qarz majburiyatli qimmatli qog'ozlarni chiqarish orqali bank ustav kapitalini oshirishni taklif qilamiz, bu esa bankka bozordagi bank holatini yaxshilanishiga keng imkoniyatlarni beradi. Bunga misol sifatida obligatsiyalar xizmat qilishi mumkin.

4. Shuningdek xorij banklari tajribasidan kelib chiqqan holda, bonusli emissiyani qo'llashni taklif qilamiz. Balans hamda bozor qiymati orasidagi farqni qoplash uchun mulklarni qayta baholash uchun rezervlar(zahiralar) tashkil qilinadi, ushbu zahiralar bank aksiyadorlari orasida kasiyalarni bepul joylashtirilish k'orinishida kapitalizatsiya qilinadi, shu narsa bonus emissiyasini tashkil qiladi.yangi aksiyalar aksiyadorlik kapitalini oshiradi, lekin bank mulkini qadrsizlantirmaydi va bunga qadar chiqarilgan aksiyalar qiymatini pasaytirmaydi.

5. Aksiyalarni qarz qimmatli qog'ozlarga almashtirish. G'arbda ko'plab banklar kapitalni o'stirish uchun "aksiyalar – qarz majburiyatlar" turidagi almashish operatsiyalarini amalga oshiradilar. Bunday operatsiya bank qo'shimcha kapitali tarkibida subordinar obligatsiya mavjud holatdagina amalga oshiriladi.

Ushbu qarz majburiyatli qimmatli qog'ozni so'ndirish uchun bank amortizatsiya fondini to'ldirishi kerak. Misol uchun bank yillik 8% bilan 20 mln. so'mlik obligatsiyani chiqardi. 10% lik potensial stavka oshishini hisobga olgan holda ushbu obligatsiyalar bozor qiymati 10 mln. dollargacha tushishi mumkin. Yangi aksiyalarni 10mln. dollarga sotib va oldingi majburiyatlarni joriy qiymat bo'yicha sotib olsa, bank balansdan 20 mln. dollarlik qarzni hisobdan chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday qilib ushbu almashuv tugaganidan keyin bankga amortizatsiya fondi mablag'lari keraksiz bo'lib qoladi.

Bu borada xorijiy tajribani amaliyotga tatbiq etishda Respublikamiz Markaziy banki tomonidan Bazel standartlariga asosan ishlab chiqilgan 2015-yil 6-iyuldagi 2693-sonli "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu nizomda belgilangan tijorat banklari kapital yetarliligining minimal darajasi Bazel standartlarida ko'zda tutilgan darajadan ma'lum jihatdan farq qiladi. Chunki har qanday davlat Bazel tavsiyalarini qabul qilishda o'zining iqtisodiy ahvolini inobatga olishi zarurdir. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin:

3.2-jadval.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari kapitali yetarliligiga nisbatan belgilangan talablarning xalqaro Bazel standartlaridan farq qiluvchi asosiy jihatlari⁵⁰:

No	Ko'rsatkichlar	Bank kapitali yetarliligining minimal darajasi, foizda
1	Tijorat banklari jami kapitalining yetarlilik darajasi:	
1.1	Xalqaro Bazel standartlari talabi	8
1.2	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talabi	12,5
2	Tijorat banklari I darajali kapitalining yetarlilik darajasi	
2.1	Xalqaro Bazel standartlari talabi	4
2.2	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talabi	9,5

⁵⁰ Respublikamiz Markaziy banki va Xalqaro Bazel qo'mitasining me'yoriy yo'riqnomalari asosida tayyorlanadi

Respublikamiz tijorat banklari kapitalining yetarliligiga nisbatan qo'yilgan talablar Bazel standartlaridan bunday tarzda farqlanishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

1. Tijorat banklari kapital bazasini mustahkamlashda ayrim muammolarning mavjudligi.

Masalan, tijorat banklari jami kapitali tarkibida ustav kapitali salmog'ini 2000-2004-yillarda pasayish tendetsiyasiga ega bo'lganligi bu boradagi asosiy muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida respublikamizda keyingi yillarda banklarning ustav kapitali minimal miqdorini oshirib borish borasida bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

2. Tijorat banklari korporativ mijozlariga tegishli depozitlarni sug'urtalash tizimining mavjud emasligi.

Qisqa qilib aytganda, ayrim olingan mamlakatlarda bank tizimi xususiyatiga qarab Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlarda ko'zda tutilgan bank kapitali yetarliligiga qo'yilgan talablar ma'lum jihatdan farqlanishi mumkin. Bunda asosan mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, banklarning moliyaviy holatidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham Bazel standartlari tavsiya xarakteriga egadir.

3.3 Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish yo'llari

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etishda va bank kapitali tarkibini takomillashtirib borishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

1. Tijorat banklarida "kapital riski"ni kamaytirish.

Ma'lumki, kapital riski deganda, bank aktivlarining bozor narxi yoki sifatining o'zgarishi natijasida kapital tarkibidagi ayrim manbalar kamayish natijasida bank kapitali miqdorining kamayish xavfi tuchun iladi. Kapital riski bank kapitali tarkibida qayta baholash zaxiralari qanchalik yuqori salmoqqa ega bo'lsa, shunchalik yuqori bo'ladi.

Amaliyotda bank kapitali tarkibida devalvatsiya zaxirasi yuqori salmoqqa ega. Bu milliy valutamiz qadrining oshishi ustav kapitalida xorijiy valutaga ega tijorat banklarida kapitalning kamayish xavfini tug'diradi. Shu sababli devalvatsiya zaxirasi nobarqaror manba hisoblanadi. Ko'pgina iqtisodchilar tijorat banklarida kapital riskini kamaytirish maqsadida xalqaro amaliyotga muvofiq devalvatsiya zaxirasini I darajali kapital tarkibidan chiqarib, II darajali kapital tarkibiga kiritish lozimligini ko'rsatishadi. Biroq, fikrimizcha buning uchun I darajali kapital tarkibida devalvatsiya zaxirasini o'rnini bosuvchi manbani topish kerak bo'ladi. Chunki, devalvatsiya zaxirasining I darajali kapital tarkibidan chiqarilishi ko'pgina tijorat banklari kapitalining keskin kamayishiga va kapital yetarliligiga qo'yilgan talablarni bajara olmasliklariga olib keladi.

Tijorat banklarining ustav kapitalining xorijiy valutadagi qismini konvertatsiya qilish va xorijiy valutada ustav kapitalini shakllantirishni ta'qiqlash bank tizimiga bo'lgan investitsiyalarning qisqarishiga olib keladi. Chunki, xorijiy investorning o'z mablag'ini konvertatsiya qilib investitsiyaga yo'naltirishi, yuqori inflyatsiya sharoitida nafaqat oladigan daromadining balki, qilgan qo'yilmasining ham qadrsizlanishiga olib keladi. Shu sabab, investor barqaror valutada investitsiya qilishdan manfaatdor bo'ladi. Biroq, bank ustav kapitalidagi xorijiy valutadagi ulush valuta kursi o'zgarishi natijasida bank kapitali miqdorining o'zgarib turishiga olib keladi.

Devalvatsiya zaxirasini daromad sifatida soliqqa tortib, dividend sifatida to'lash maqsadga muvofiq hisoblanmaydi. Bu tijorat banki aktivlari va kapitalining kamayishiga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklari devalvatsiya zaxirasini kapitallashtirish lozim. Devalvatsiya zaxirasining doimiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lishi – uni kapitallashtirishga imkon beradi. Xorij amaliyotida bu tarzda qayta baholash zaxiralarining (valuta, qimmatli-qog'ozlar va asosiy vositalarni qayta baholash zaxiralari) kapitallashtirilishi, ya'ni bank aksiyadorlariga bepul aksiya tarqatish orqali ustav kapitaliga qo'shilishi "bonusli emissiya" deb ataladi. Yangi chiqarilgan aksiyalar bank aktivlarini kamaytirmaydi va oldin chiqarilgan aksiyalar

bozor bahosini tushirmaydi. Bonusli emissiya bank aksiyadorlik kapitalini oshirib, uning barqarorligining o'sishini ta'minlaydi.

Odatda, kapitallashtirish ustav kapitalining 20 foizigacha amalga oshiriladi. Bonusli emissiya summasi ustav kapitalining 5 foizigacha bo'lsa, aksiyalar bozor bahosida va 5 foizdan 20 foizgacha bo'lgan qismi nominal qiymatida aksiyalar tarqatiladi. Bunda aksiyalar bozor bahosining yuqori bo'lishi bonusli emissiyadan aksiyadorlarning manfaatdorligini oshiradi. Xorij amaliyotiga muvofiq devalvatsiya zaxirasining 15 foizidan oshmagan miqdorda uch yilda bir marotaba, besh yildan ortiq muddatga ega bo'lgan qismini kapitallashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fikrimizcha, besh yildan ortiq muddatga ega bo'lgan devalvatsiya zaxirasi summasi mohiyatan o'zini "oqlagan" bo'ladi. Chunki, devalvatsiya zaxirasi ustav kapitalini qayta baholash natijasida garchi, bank aktivlari o'smagan holda shakllantirilsada, bank passivida aktivlar manbasi sifatida aks etadi. Mazkur aktivlarni aynan ko'rsatib bo'lmasada, ular besh yil davomida bir necha bor oborotda bo'lib o'zini oqlagan hisoblanadi.

Devalvatsiya zaxirasining kapitallashtirilmagan qismini II darajali kapital tarkibiga kiritish lozim. Bu tijorat banklari II darajali kapitali bazasining mustahkamlanishiga olib keladi.

2. Tijorat banklarining qo'shimcha kapital bazasini mustahkamlash imkoniyatlaridan to'liqroq foydalanish lozim.

Tijorat banklari konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalariga qilingan qo'yilmalar va subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari hajmini oshirish yo'li bilan qo'shimcha kapital bazasini mustahkamlash imkoniyatiga egadirlar.

3. Tijorat banklari aksiyalarini ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida keng ko'lamda oldi-sotdi qilinishini ta'minlash lozim .

Buning uchun avvalo tijorat banklari tomonidan oddiy aksiyalarga to'lanadigan dividendlar darajasini investorlar manfaatiga maqbul keladigan darajaga yetkazish lozim. Bunda hukumatning qisqa muddatli obligatsiyalarga to'lanadigan foizlardan asos sifatida foydalanish, investorlarning bank

aksiyalariga qilgan qo'yilmalari va ulardan oladigan daromadlariga inflyatsiya darajasi va valuta kursi ta'sirini hisobga olish zarur. Ko'pgina tijorat banklari ustav kapitalini oshirish maqsadida sof foydani asosiy qismining bir necha yil ketma ket kapitallashtirishlari ularning to'laydigan dividendlarini kamayishiga olib kelmoqda. Sof foydaning kapitallashtirilishida kapitalni shakllantirish matritsasidan foydalanish va dividendlarning doimiy o'sish tendensiyasini ushlab turish lozim. Aks holda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyalarga bo'lgan barqaror talabni yuzaga keltirish va bank aksiyalarining bozor bahosini aniqlash imkoni bo'lmaydi.

4. Tijorat banklari kapitali yetarliligini haqqoniy tarzda aks ettirishni ta'minlash lozim.

Ma'lumki, amaliyotda tijorat banklariga kapital yetarliligini sifat ko'rsatkichlarini buzib ko'rsatish imkoniyati mavjud. Ayniqsa, kreditlarni noto'g'ri tasniflash orqali muammoli kreditlar uchun ehtimoliy yo'qotishlarga doir maxsus zaxira xarajatlarini kamaytirish bilan bank sof foydasini asossiz oshirish mumkin. Tijorat banklari xarajatlarini bu yo'l bilan kamaytirish ma'lum davr ijobiy natija berishi mumkin. Lekin kelgusida bank inqirozga uchrashi uchun zamin yaratadi.

Mazkur muammoni bartaraf etish va kapital yetarliligini haqqoniy tarzda baholanishini ta'minlash uchun kapital yetarliligini hisob-kitob qilishda umumiy kapitaldan chegirmalar tarkibiga kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun yaratilmagan maxsus zaxiralar summasini kiritish lozim. Bu tijorat banklariga bank sof foydasini asossiz oshirish orqali kapitalni o'stirishga qaratilgan harakatlarini samarasiz qilib qo'yadi.

5. Bank kapitali monandliligiga qo'yilgan talab Nizomiga kiritilgan o'zgartirish, ayniqsa riskka tortilgan aktivlarni hisob-kitob qilishda operatsion riskni hisobga olishni bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim. Chunki, operatsion risk kredit risklaridan keyingi o'rinda turib, ushbu ko'rsatkichning birdaniga amaliyotga joriy qilinishi kapital yetarliligi ko'rsatkichining birdaniga keskin tushib ketishiga olib keladi. Bu esa milliy bank tizimimizda bir qancha

muaommolar paydo bo'lishiga, tijorat banklarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarining tushib ketishiga, natijada esa xorijiy va milliy investorlarning bank timiziga bo'lgan ishonchining yo'qolishiga olib keladi.

6. Bank aksionerlari ustav kapitaliga to'laydigan mablag'larni ko'paytiradilar, ya'ni qo'shimcha mablag'larni kiritadi;

7. Mahalliy investorlar orasida ancha rivoj topgan, moliyaviy barqaror bank aksiyalarini sotib olishga qiziquvchilarni ko'paytirish;

8. Taqsimlanmagan foyda qismini saqlash hisobiga bank kapitalizatsiyasini amalga oshirishga harakat qilish ;

9. Ustav kapitallarini birlashtirgan holda bir necha banklarni qo'shish va birlashtirish shaklida qayta tashkil etish.

10. Respublikamiz tijorat banklari kapitali tarkibida uning nobarqaror elementi hisoblangan aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasi ulushini keskin kamayishiga va kamaygan mablag'lar miqdorida kapitalning nisbatan barqaror elementi hisoblangan sof yoki taqsimlanmagan foyda miqdorining o'stirilishiga erishmog'imiz lozim. Buning uchun albatta birinchi navbatda bank aktivlari tarkibida muammoli aktivlar miqdorini minimal darajagacha qisqartirilishiga e'tibor qaratilishi lozim

11. Tijorat banklari daromadlari tarkibini diversifikatsiyalashga e'tibor qaratilmog'i lozim. Kelgusida bozor munosabatlarining chuqurlashuvi iqtisodiyotning pulga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun qayta moliyalash stavkasi darajasining pasayishi, banklararo raqobatning kuchayishi ularning foizli daromadlari va ko'rsatiladigan an'anaviy xizmatlar uchun olinadigan vositachilik xaqlarining pasayib borishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun banklar tomonidan boshqa xizmat turlarini rivojlantirish orqali daromadlar diversifikatsiyasini amalga oshirishlari talab etiladi.

12. Taklif etilgan bankning yillik moliyaviy siyosatini tuzishda keyingi yilda bank daromadlari, xarajatlari, foydasi va kapitallashuv darajalari ko'rsatkichlari o'rtasida to'g'ri proporsionallilik darajalari ko'zda tutilishi, oqibatda yillar

davomida bank kapitalining barqaror ravishda ko'payib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida bildirilgan fik-mulohazalarning bank faoliyatiga to'liq joriy etilishi, albatta birinchidan bank faoliyatining samaradorligini oshirsa, ikkinchidan ularning kapitallashuvi jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va uchunchidan ularning barqaror faoliyat yuritishlari uchun iqtisodiy asos bo'lib xizmat qiladi.

III bob bo'yicha xulosa.

Xulosa qilib aytganda, respublikamiz bank tizimida tijorat banklari kapital tarkibini shakllantirish va uning yetarliligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan bir qancha muammolar mavjud.

Biz ushbu bobimizda dastavval bank kapitalini oshirishda mavjud muammolarni aniqlab oldik va ularning banklar moliyaviy holatiga ta'sirini atroflicha o'rgandik. Chunki mamlakatimizda banklar kapitalini oshirish va uni xalqaro me'yorlar darajasiga yetkazish uchun ma'lum vaqt talab qilinadi. Ammo tahliliy natijalarga tayanib aytadigan bo'lsak, mamlakatimiz banklarida kapital yetarliligi xalqaro me'yorlardan bir muncha yuqoridir. Biroq shunga qaramasdan banklarimizda bir muncha muammolar ko'zga tashlanyotganligini ko'rdik.

Aytish joizki, har bir sohani rivojlantirishda xorij tajribasining o'рни beqiyosdir. Ushbu bobimizning asosida esa biz mavjud muammolarni chuqur o'rgandik, qolaversa muammolar yechimini optimallashtirish maqsadida xorij tajribasining mamlakatimiz bank tizimiga qo'llash chora tadbirlarini ishlab chiqdik. O'rganilgan muammolar va o'zlashtirilgan tajribalar asosida banklar kapitalini yanada oshirish xususida yechimlar ishlab chiqdik.

O'ylaymizki, ushbu muammolarni bartaraf qilish maqsadida yuqorida keltirilgan chora tadbirlarni amalga oshirilishi respublikamiz bank tizimida bank kapitali samaradorligini oshirish va uning tarkibini takomillashtirib borishiga imkoniyat yaratadi hamda buning natijasida respublikamiz bank tizimi barqarorligi ta'minlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon olib borilgan iqtisodiy islohotlar ichida bank tizimi va uning kapitallashuv darajasini oshirishdek munozarli va murakkab faoliyat bo'lamasa kerak. Uzoq davrlardan beri banklar va ular faoliyatini tartibga soluvchi organlar o'rtasida bank kapitalining miqdori va strukturasi yuzasidan tortishuvlar mavjud. So'nggi yillarda nafaqat bank kapitalining mohiyati va konsepsiyasi yuzasidan qarashlar o'zgarimasdan, balki bank faoliyatini nazorat qilishda kapitalning roli to'g'risidagi qarashlar ham o'zgarib bormoqda.

Umuman olganda shu yillar mobaynida respublikamiz tijorat banklari regulativ kapitalining ko'payishi evaziga yirik kapitalga ega bo'lgan banklar sonining ko'payib borishi ijobiy holat hisoblanadi. Shuning uchun ham tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash va iqtisodiyotning real sektorini kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masalalardan ekanligini inobatga olib, hukumat tomonidan banklarning kapitallashuv darajasini oshirish masalasiga alohida etibor qaratilmoqda.

Banklar kapitali – bank egalari tomonidan kiritilgan va asosan aksionerlik kapitalidan tashkil topgan mablag'lar, qo'shimcha kapital, ko'zda tutilmagan xarajatlar bo'yicha zahiralar va taqsimlanmagan foydadan iboratdir. Bank kapitali uni turli xildagi risklardan himoya qilib, bankrotlikdan saqlanishning so'nggi "himoya yostiqchasi" bo'lib xizmat qiladi. Kapital shuningdek, bank kredit faoliyatining kengayishi va strukturaviy rivojlanishini ta'minlovchi uzoq muddatli va eng asosiy barqaror bo'lgan moliyaviy vositadir. Bank kapitalining asosiy shakllari–oddiy aksiyalar, imtyozli aksiyalar, qo'shimcha kapital, taqsimlanmagan foyda, rezervlar, subordinar qarzlardir.

Biz ushbu tadqiqot ishimiz davomida bir qancha murakkab muammolarga duch keldik. U muammolarni chuqur o'rgangan holda ularga yechim topishga harakat qildik. Shu o'rinda mavjud muammolarni sanab o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Bizga ma'lumki, tijorat banklarini kapitalini oshirishda, asosan ikkita optimal variant mavjuddir.

Birinchisi banklar o'z aksiyalarini chiqarish va uni joylashtirish orqali ushbu ko'zlangan maqsadga erishishlari mumkin. Biroq biz ta'kidlab o'tgan muammolardan biri shundan iboratki, mamlakatimizda moliya bozori yaxshi rivoj topmaganligi uchun banklar chiqargan o'zaksiyalarini joylashtirishda muammolar yuzaga kelmoqda, ya'ni chiqarilgan aksiyalar juda arzon baholanadi va sotilishida xaridor topish juda mushkil bo'lmoqda. Bu muammoni yechimi sifatida aytishimiz mumkinki, davlat budjeti profitsit bilan bajarilayotgan bo'lsada monetar instrumentlarning biri bo'lgan ochiq bozor operatsiyalarini amaliyotga joriy etish, o'ylaymizki mamlakatimizda moliya bozorini rivojlanishiga olib keladi.

Banklarning kapitalini oshirishning ikkinchi yo'li bo'lib ularni foydasi hisoblandi. Lekin mamlakatimizda banklar faoliyatiga davlat aralashuvi ko'p kuzatilmoqda. Xususan aholiga ijtimoiy ko'mak berish maqsadida qabul qilingan qarorlar ijorosini ta'minlashning bir uchi banklar zimmasiga tushmoqda. Natijada banklar kredit portfeli tarkibida ta'minotsiz kreditlar salmog'i ortmoqda va bu muammoli kreditlarni yuzaga keltirmoqda. Banklar daromadining 60 foizidan ortiq qismi kredit operatsiyalariga to'g'ri kelayotganligi bois banklar foydasining oshishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tijorat banklari kapitali tarkibini tahlil qilganimizda konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalariga qilingan qo'yilmalar nolga tengligini ko'rdik. Aslida amaliyotda birlashgan korxonalarga banklar tomonidan ulush kiritilmoqda. Ammo bizda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) amal qilmaganligi uchun bu investitsiyalarni kapital hisobida aks ettirib bo'lmayapti. Bu eng katta muammolardan biri ekanligini e'tirof etishimiz zarurdir.

Tahlil natijalarini va mavjud muammolarni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni ishlab chiqishga qaror qildik:

1. Tijorat banklari aksiyalarini ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida keng ko'lamda oldi-sotdi qilinishini ta'minlash zarur. Bunda tijorat banklari tomonidan oddiy aksiyalarga to'lanadigan devidentlar darajasini investorlar

manfaatiga maqbul keladigan darajaga yetkazish va aholining qimmatli qog'ozlar bozori haqidagi ma'lumotlarini oshirish lozim;

2. Moliyaviy resurslar tarkibida daromad keltirmaydigan moliyaviy resurslar salmog'ining imkon darajasida past bo'lishiga erishish. Chunki kapitalni oshirishning optimal variantlaridan biri bo'lib banklarning foydasi hisoblanadi. Daromadlilik darajasi qancha yuqori bo'lsa foydasi ham shunchalik yuqori bo'ladi;

3. Moliyaviy resurslar va passivlar o'rtasida o'zaro mutanosiblikni vujudga keltirish. Bu orqali banklarning to'lovga qobilligini ta'minlaymiz va vujudga keladigan ortiqcha xarajatlarni kamaytirishga erishamiz;

4. Moliyaviy resurslarni joylashtirishda ta'minot va xatar darajasiga katta e'tibor qaratish lozim. Chunki asosiy daromad kredit operatsiyalariga hissasiga to'g'ri kelmoqda;

5. Moliyaviy resurslar bo'yicha vujudga keladigan xatarlardan saqlanish uchun zaxira va kapitalning yetarlilik darajasini saqlab turish zarurdir.

6. Devalvatsiya zaxirasi nobarqaror manba ekanligini hisobga olgan holda I darajali kapital tarkibidan II darajali kapital tarkibiga kiritish lozim;

7. Bank risklarini kamaytirish maqsadida yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish, innovatsion g'oya va fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish lozim. Bunda bank faoliyatida turli yangi dasturlarni, texnika va texnologiyalardan foydalanish risklarini kamaytirish bilan birga bank ishi sifatini oshirishga ham yordam beradi. Bu o'z navbatida operatsiyalarning tezligi, sifatlilik, qolaversa, mijozlarning ishonchi ortishi natijasida bank mijozlari bazasi kengayishiga olib keladi.

8. Tijorat banklari jami kapitali tarkibida qo'shimcha kapital salmog'ini oshirish lozim. Buning uchun tijorat banklari qoshida lizing, faktoring va boshqa kompaniyalarni ochish va ko'paytirish lozim. Ya'ni bank kapitalining konsolidatsiyalashuviga erishish lozim.

Yuqorida keltirilgan takliflarning barchasi bank moliyaviy resurslarini samarali boshqarishga xizmat qiladi. Ularni amaliyotga joriy qilish, banklarning

moliyaviy resurslarini samarali boshqarish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Banklarning raqobatbardoshligini oshiradi. Ushbu tavsiyalarni bank amaliyotida qo'llash tijorat banklari kapitali va uning muvofiqligini ta'minlash bilan birga, aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshishiga va milliy iqtisodiyotning o'sishiga xizmat qiladi.

Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda tijorat banklarining kapitallashuv darajasi yil sayin o'sib bormoqda va tahlil natijalariga tayanib aytganda, asosan sof foyda hisobiga ta'minlanmoqda.

O'ylaymizki, yuqoridagi muammolarni bartaraf etgan holda ishlab chiqqan takliflarimiz amaliy ifodasini topsa, tom ma'noda biz maqsadimizga erishgan bo'lamiz va banklar kapitallashuv darajasini yanada oshishiga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi Qonuni. 1995-yil 21-dekabr.

1.2. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonuni. 1996-yil 25-aprel`.

1.3.O'zbekiston Respublikasining “Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida”gi Qonuni. 2011-yil 4-oktyabr.

1.4. O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi Qonunlar to'plami. T. O'zbekiston 2011y. 448b.

1.5. O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik xujjatlari to'plami. T.O'zbekiston 2011 y. 728 b.

1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017-yil 7-fevral.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3270-son Qarori 2017-yil 12-sentabr.

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3272-sonli Qarori. www.lex.uz.

1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5177-sonli Farmoni. www.lex.uz.

1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-iyundagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3066-sonli Qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – №26. – 577-modda.

1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2344-sonli Qarori. Qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2015. - №18 (674). – 217-modda.

1.12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 14-iyun 2015-yilda tasdiqlangan 2696-sonli "Aktivlarni sifatini tasniflash, mumkin bo'lgan yo'qotishlar bo'yicha tijorat banklari tomonidan rezervlar tashkil qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Nizomi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2015. - №25 (678). – 332-modda.

1.13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-son (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 13-avgustda 2709-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2015. - №32 (688). – 437-modda.

1.14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/3-son (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 6-iyulda 2693-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2015. - №27 (683). – 360-modda.

1.15. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56b.

1.16. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104b.

1.17. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48b.

1.18. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488b.

1.19. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. Tuzuvchi F.M.Mullajanov. -T.: O'zbekiston, 2011. -528 b.

1.20. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash.- T.: Moliya, 2002-304b.

1.21. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008,-335b.

1.22. Abdullayeva Sh. Z. Bank ishi: Darslik. - Toshkent: Moliya-iqtisod, 2017. -312b.

1.23. Azizov U.O‘. va boshqalar. Bank ishi. Darslik. – “Fan va texnologiya”, 2016-640 b.

1.24. Saidov D.A. Tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo'llari: Iqtisod fanlari nomzodi ... Dis.//-T.: BMA, 2007-45b.

1.25. Алавердов А.Р. Стратегический менеджмент в коммерческом банке: учеб./А.Р.Алавердов. – М.: Маркет ДС, 2007 – 576с.

1.26. Деньги, кредит, банки / [Г.С.Панова и др.]; под ред. О.И.Лаврушин. – 9-е изд.,исправл. и доп. – М.: КНОРУС, 2011, 54-с.

1.27. Гребеник Т. В. Управление качеством кредитного портфеля коммерческого банка в период посткризисного развития: Иктисод фаналри номзоди ... Дис.//-М.: 2014й 214б.

1.28. Ковалев П.П. Банковский менеджмент/ П.П.Ковалев, - М.: Финанси и статистика, 2009. – 304с.

1.29. Крис Дж Барлтрон, Диана Мак Нотон. “Банки на развивающихся рынках” М, 1997, 45-62с.

1.30. Лаврушин О.И. Банковское дело.- М.:КНОРУС, 2011-65с.

1.31. Лаврушин О.И. Организация и планирование кредита.- М.: Финанси и статистика, 2009-88с.

1.32. Лаврушин О.И. Банковский менеджмент: учебник / кол.авторов; под ред. д-ра экон.наук, проф. О.И.Лаврушина.- 2-е изд., перераб. и доп. – М.: КНОРУС, 2009 - 560с.

1.33. Под ред. проф. О.И.Лаврушина. Банковское дело. Учебник.– М.: КНОРУС, 2016. – 800 с.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

2.1. Kadirov A.K. Tijorat banklarida kredit berish mexanizmini takomillashtirish yo'llari. Iqtisodi fanlari nomzodi ...Diss.avtoreferati.-T.: BMA, 2009.-21b.

2.2. Mirzaev F. I. “Banklararo raqobat: mohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari”. Monografiya, Toshkent 2008.

2.3. Omonov A.A. “Tijorat banklarining moliyaviy resurlarini boshqarish”. Monografiya, Toshkent 2008.

2.4. www.Sciencedirect.com Jacob Oduor, Kethi Ngoka, Maureen Odongo “Kapital requirement, bank competition and stability in Africa” Review of Development Finance 7 (2017) p.46

2.5. www.Sciencedirect.com Peter Majcher “Increased Bank Kapital Requirements: Neither Panacea nor Poison” Procedia Economics and Finance 25 (2015) p. 250

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

3.1. AHBOR-REYTING” reyting agentligi yillik hisobot ma'lumotlari. 2018-y.

3.2. Bank axborotnomasi” gazetasi. 2017-2018-yil sonlari.

3.3 O'zbekiston Respublikasi AT “Aloqabank”ning yillik hisobot ma'lumotlari. 2018-y.

3.4 O'zbekiston Respublikasi TIF “Mllybank”ning yillik hisobot ma'lumotlari. 2018-y.

3.5 Internet saytlari.

www.stat.uz

www.bankir.ru

www.cbu.uz

www.tfi.uz

www.cbr.ru

www.aloqabank.uz

www.ziyonet.uz